

74 102
11/18

O.A. Maxmudova, S.A. Maxmudova

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PLASTIK MATERIALLAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALARI

(O'quv qo'llanma)



74.102
M 18

O.A. MAXMUDOVA, S.A. MAXMUDOVA

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PLASTIK MATERIALLAR BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYALARI

O'quv qo'llanma

maxcyc neg-KB

Qorinigob o'sgorak

Yatagan uchun

govsat 6.5.

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2019



O'UK 373.2

KBK 74.102

M 32

Taqrizchilar:

L. Mirjalolova – TSHXTXQTMOI «Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim» kafedra mudiri, p.f.n., dotsent;
D.Sh. Ziyadullayev – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU «Axborot ta'lif texnologiyalari» kafedrasи mudiri, t.f.n., dotsent;
D. Odilova – Chilonzor tumani 24-IMTM uslubchisi.

Mazkur o'quv qo'llanmada bolalarni tasviriylar mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtida turli ashyolardan modellashtirishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari, mayda qo'l motorikasini rivojlantiruvchi texnologiyalar keltirilgan.

Ushbu qo'llanma maktabgacha yoshdagi bolalarning plastik materiallar bilan ishlash faoliyatining turli ko'rinishlarda ta'lif berish maqsadida ishlab chiqildi.

Qo'llanma maktabgacha ta'lif muassasalarin pedagoglari, maktabgacha ta'lif xodimlarini tayyorlash muassasalari talabalari, malaka oshirish tinglovchilari hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Elektron qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan DGU 05882 raqam bilan 2018-yil 18-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan.

«Maktabgacha ta'lif tizimida plastik materiallar bilan ishlash texnologiyalari» pedagoglar uchun o'quv qo'llanmasi TDPU huzuridagi XTXQTMOXM Ilmiy-metodik kengashida muhokama etilib, 2018-yil 29-sentabr 6-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshinish instituti Ilmiy kengashi yig'ilishida muhokama etilib, 2019-yil 31-yanvar 1-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

ISBN 978-9943-5450-8-3

© O.A. Maxmudova va boshq., 2019
© «Niso Poligraf», 2019



Mamlakatimiz taraqqiyotida mustaqqillik ruhi tobora mustahkamlanib, barcha sohalarda jahon andozasiga mos islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalarining turmush bilan aloqasi kundan kunga mustahkamlanib bormoqda. O'sib kelayotgan yosh avlod, o'zining mustaqilligi va tashabbuskorligini namoyish etisbi, jamiyat foydasi uchun tashkil etiladigan mehnatning go'zailigi va quvonchini, jamoaning kuchini his etishi uchun yordam beradigan yangi shakl va usullar aniqlanmoqda.

Bugungi kunda kamol topayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya benish jarayonida mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi, mehnati bilan hissa qo'shish pedagog-tarbiyachilarining oldida turgan muhlm vazifalardan blri hisoblanadi.

Buning uchun tarbiyachi va pedagoglar o'z ustlanda ko'proq ishlashi, kirib kelayotgan yangiliklarni amaliyatga joriy etishi ta'lim tizimini takomillashtirishda ta'ilm samaradorligining garovi hisoblanadi. Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko'ra tasviny faoliyat mashg'ulotlaridagi ishlatiladigan turli xil materialilar yildan yilga boyib bormoqda. Buning uchun ta'lim olayotgan har bir bolani tasviriy faoliyatga qiziqishini, mavjud ijodkorlik qobiliyatini boyitib borish maqsad qilib olingan. Ta'limning samaradorlik mezoni uning xalqaro standart talablariga javob berishi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimldagi pedagoglarning tasviriy san'at sohasidagi barcha nazariy va amaliy bilimlarni o'rganishi, bu bilimlarni egallash vositasida pedagog o'z sohasining ustasi bo'libgina qolmasdan, ana shu san'at sirlarini bolalarga ularsha olish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim muassasalarida olib boriladigan haykaltaroshlik mashg'ulotlari bola shaxsining shakllanishi, ongli faoliyat yuritish malakalarini hosil qilishda muhlm ahamiyat kasb etadi. Chunki haykaltaroshlik mashg'ulotlarida eng faol ishlatiladigan a'zolarimiz – qo'l (bajaruvchi) va ko'zimiz (kuzatuvchi, jarayonni nazorat qiluvchi) hisoblanadi.

Aynan barmoq uchlaridagi sezgi organlari bosh miyaning nutqning shakllanishiga ta'sir etuvchi markaz bilan bog'liq bo'lganligi uchun haykaltaroshlik mashg'ulotlari bolalarda badiiy-estetik mazmundagi bilim va amaliy malakalarni

shakllantirish bilan blrga, ularda nutqning yaxshi rivojlanishi, fikrlash, nafis differensial harakatlarni koordinatsiya qilish imkoniyatlanini oshiradi. Qolaversa, bola loy yoki plastilin kabi plastik materiallardan shakl yasar ekan, hosil bo'layotgan hajmdor buyum plastikasidan estetik zavq oladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada ijodkorlikka o'rgatish vazifalari keng yontilgan bo'lib, u bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlanda va mashg'ulotdan tashqan vaqtda turli ashyolardan modellashtirishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari, texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini yaratadi. Har bir ish mustaqil bo'lib, ta'limi maqsad va vazifaga ega. Barcha ishlar oddiydan murakkabga qarab tuzilgan.

Kitobga mazkur o'quv qo'llanmaning videomashg'ulotlar disk'i ilova qilingan.

Qo'llianmada keltirilgan ishlar mualliflarning ko'p yillik ish tajribasi asosida tayyorlandi.

Mazkur qo'llanma maktabgacha ta'lim muassasalar tarbiyachilar, talabalar, maxsus ta'lim muassasalarining mutaxassislari va ota-onalar uchun mo'ljallangan.

1.1. Polimer loyning xususiyatlari

Tasviny san'at va politexnik mashg'ulotlarda yasaladigan materiallar xilma-xildir. Bugungi kunda afzallik polimer loy (chinri xamir)ga beriladi.

Polimer loy yoki chinni xamirning kelib chiqish tanxiga ko'ra Argentinada ixtiro qilingan bo'lib, undan ajoyib gullar, shakllar yaratiladi, bugungi kunda bu material interyer va bezaklar uchun noyob mahsulotlarni yaratish imkonini beradi. Vizual qarashda u chinniga o'xshaydi, undan tayyorlangan mahsulot havoda qotib qoladi. Bunday materialdan tayyorlangan suvenir va aksessuarlarni bolalar ham tayyorlashlari mumkin. Sog'liq uchun xavfsiz, qiymatligi bo'yicha arzon, yumshoq, u bilan ishlash zavqli va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Fantaziya, didni rivojlantirishga xizmat qilladigan a'lo darajadagi qiziqish hamdir.

Plastik materiallar bilan ishlash tasviri san'atning bir turi hisoblanib, hajmli yoki relyefli obrazlardan butun kompozitsiya yasash tushuniladi. Model lashtirish texnikasi turli va rang-barang bo'lib, shu bilan birga kichik yoshdagagi bolalar ham bajara olish imkoniyatlga egadir.

Fazoviy-plastik tasvirlarni model lashtirishda plastik materiallardan narsalarni yasash ajoyib imkoniyatlarni beradi.

Model lashtirish – badiiy ijodiyotning eng aniq shaklidir. Bola yaratgan narsasini nafaqat ko'radi, qo'liga oladi, paypaslaydi, kerak bo'lsa o'zgratiradi.

Model lashtirishning asosiy asbobi qaychi, qalam, mo'yqalam emas, balki qo'ldir, to'g'rirog'i ikki qo'limizdir, shu sababli mahorat darajasi qo'llarning egalik darajasiga bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, model lashtirish texnikasi oddiy, sodda va o'zini rivojlantirish uchun eng qulay vosita deb hisoblash mumkin.

Pedagog va ota-onalarning ishtirokisiz ham bir bo'lak loydan cheksiz, ko'plab obrazlar, har gal yangi usul va variantlarni topib, yaratish mumkin.

Model lashtirish, ya'ni loy ishi mashg'ulotlari bolaning rivojlanishiga kompleks ta'sir etadi:

- shakl, hajm, plastik, rangni idrok etish hissiyotini, sensor sezuvchanligini rivojlantiradi;
- mayda qo'l motorikasini, fazoviy taffakurni, tasavvurni rivojlantiradi;
- ikkala qo'l ishini sinxronlashtiradi;
- ishni rejalashtirish, amalga oshinish, natijani bashoratlash va unga erishish, kerak bo'lsa, o'zgartirish kiritish ishlarda ko'nikma, malakalari shakllanadi;

Loy bilan ishlashning eng muhlm va qlimmat jihatni shundaki, tasviriy faoliyatning boshqa ish turlari kabi bolani estetik tomondan rivojlantiradi. U go'zallik qonunlarini ko'rishni, his qilishni, baholashni va yaratishni o'rganadi.

To'g'ri tayyorlangan chinni xamlr o'zining xossasiga ko'ra yumshoq, llashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu material bilan ishlash uchun chuqurlashtirilagan maxsus bilim va ko'nikmalar shart emasligi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayni muddaodir.

Bunday loyni tayyorlash usullari xilma-xli.

1-usul. «Chinni xamir»

Bu retseptda zararli ingridiyentlar va sog'liq uchun xavfli ximikatlar yo'q. Uni pishirish kerak emas.

1. 3 osh qoshiq 801 raqamli PVA yelimi
yoki kanselyariya PVA yelimi.



2. 2 osh qoshiq pista yog'i.



3. 1 osh qoshiq glitserin.



4. 3/1 choy qoshiq limon kislotasi.



5. 4, 5 osh qoshiq jo'xori kraxmali.



Tayyorlanishi:


Barcha ingrediyyentlar aralashtirilib, xamir qoriladi.



Xamirni yog'langan stol ustiga ag'darilib, ishlov beniladi.

Necha xil rang kerak bo'lsa, shuncha qismlarga bo'linib, kerakli rangdagi guash solinadi (bo'yash uchun faqat guash ishlataladi).





Xamirni xona haroratida 3 soatga yog'langan sellofan xaltaga solinadi va tindiriladi. Xamir 5 haftagacha, o'z xususiyatini yo'qotmay, seliofan xaltada va konteynerda saqlanadi.

Yagona massali, qo'lga yopishmaydigan, yaxshi silliqlanish va elastiklik holatga yetguncha ishlanadi.

So'ngra, polimer loyni polietilen xaltaga solib, havo o'tkazmaydigan holda o'raladi.



Mashg'ulotlarda tayyorlab qo'yilgan loyning ma'lum qismi olinib, unga yana ishlov beriladi. Qo'lga yopishmaydigan holga kelgunga qadar ishlanadi. Loy qo'lga yopishmaydigan, lekin o'z massasiga yaxshi yoplshadigan va plastiklik holati yaxshi bo'lsa, bunday loydan har qanday shakl yasash mumkin bo'ladi.

Polimer moy yoki chinni xamir bilan ishlashda kerak bo'ladigan usuliar.

Loy bilan bajariladigan barcha ishlar qo'lda amalga oshiriladi.

1. Yumoloqlik – bu parcha loydan sharcha yasasb, unga olcha, olma kabllar shaklini benishdan iborat.



2. Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan sharcha yasaladi.



3. Sharcha yasash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustuncha kabilarga aylantirish.



4. Yassilash – sharchadan yassi non yasaladi, qo'lning holati dolmo o'zgarib turadi.



5. Cho'zish – sharchanining blr qismi cho'ziladi.



6. Surish (yamash) orqali buyumning ayrim qismlanini o'zaro biriktirish.

Cho'zish – tasviri yasaladigan narsa uchun yetarli holda loy olinib, uni ish holatiga keltiriladi va narsaning asosiy qismi tayyorlanadi, so'ngra blrin-ketin elementlari cho'ziladi, so'ngra esa, uni natura shakliga keltiriladi. Ishlanayotgan naturani tez-tez tasvir bilan solishtirib turiladi.

Loy bilan ishlash mashg'ulotlanini tashkil etish va bajarishda joyning bekam-ko'st jihozlanganligi muhlm ahamiyatga ega.

2-usul

Chinni xamir uchun:

200 gramm jo'xon kraxmall.

200 gramm PVA № 801 yelim.

1 osh qoshiq pista yog'i.

1 osh qoshiq glitserin.

3/1 choy qoshliq limon kislotasi.

Tayyorlanishi:

Barcha mahsulotlar aralashatiniladi va bug'li hammomda pishiriladi. Xamir tayyorlanib bo'lgach, zuvalacha holatiga keltiriladi. Bug'li hamomdan xamlrni yog'langan stol ustiga ag'danilib, ishlov beriladi. Necha xil rangda kerak bo'lsa, shuncha qismlarga bo'linib, kerakli rangda guash solinadi (bo'yash uchun faqat guash ishlatiladi). Xamirni xona haroratida 3 soatga yog'langan sellofan paketga solinadi va tindiriladi. Xamir 2 haftagacha saqlanadi. Ishlatishga tayyor bo'lgan xamirdan loy ishi mahsulotlarini yasagan kabi turli shakklar tayyorlanadi.

Tanishuv

Polimer loy yoki chinni xamirning xususiyatlari bilan bolani mustaqill tanishtinish tavsiya etiladi. Hech qanday ko'rsatmalarsiz, hech narsani o'rgatmay turib, loyni uning qo'lliga bering va u qo'l harakatlari orqali qiziqish bilan o'zi tanishsin.

Buni qarangki, bu juda qiziq material ekan, u «itoatkor» qo'lning har qanday harakatiga javob beradi.

Bu topilmaning chegaralari ochib yuborilsa, bola tajribasini yanada boyitish mumkin.

Bolaga turli materiaillar bilan ishlash imkoniyatini berish tavsiya etiladi. Xamir, yopishqoq qor, ho'l qum – loy, plastilinga o'xshash xususiyatlari borligiga ishonch hosil qlladi. Ularni osongina turli shaklga o'zgartirish mumkln.

Shu bilan birga, ko'plab boshqa materiallar – quruq qum, un, manka yormasidan qo'ililar yordamida ularga shakl bera olmasligini tushunib yetadi.



Chinni xamirning shaklini o'zgartirish.

Eksperimentlash

Bola plastik material bilan ishlash malakasini egallar ekan, yangi-yangi «ixtiolar» ustida ish boshlaydi. Endi u nafaqat plastik material bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi, balki materialga ta'sir etish yo'llarini o'rganadi. Demak, u yaxlit bir loydan bir bo'lakni uzib olishni, burab olishni, chimdib olishni va shaklini o'zgartirishni bilib olar ekan. Buning uchun u loyni ezish yoki yassilash, juvalash yoki cho'zish, yoki yana bir narsa qilish mumkinligini ko'radi.


Shuningdek, boshqa bo'lakka yopishtinlsa, uning yopishib qolishi, qog'ozga yoki taxtachaga surtish mumkinligi bilan tanishadi. Uning ustida tirkab chizib, keyin qo'l bilan silliqllab, tasvirning yo'qolganini ko'radi. Bunday eksperimentlarda bola mustaqil izlanuvchi rollni o'yнaydi va atrof olam bilan tanishib, o'zi uchun muhim jihatlarni egallaydi.



Material bilan eksperiment o'tkazish.

Tasvirga o'tish

Qor, qum ustidagi oyoq izlari bolalarda shakllar haqidagi binchchi tasavvurni uyg'otadi. Bolalar tajriba o'tkaza boshlaydilar, qoldirilgan izlarni o'rganadilar, manbalarni aniqlashtinshga intiladilar («Bu izlarni kim yoki nima qoldirdi?»). Turli predmetlarning «Izlari»ni o'rganishga qiziqadilar. Masalan, plastik materialga sanchqi yassilatib bosilsa, qanday iz qoldirishi, sanchqining uchi tigilsa, qanday iz qoldirishi, sanchqi bilan tirkab chizilsa, qanday iz qoldirishi bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Plastik materialga tugma, tanga yoki shu kabi narsalar izlari tushirilsa, bolalarda taxmin qilish malakalari rivojlanadi. «Bu nima?», «Nima o'xshaydi?», «Nima bilan bunday izni qoldirish mumkin?» kabi savollarni boshqalarga bera boshlaydi.



Chinni xamir bilan eksperiment o'tkazish

1.2. Polimer loy (chinni xamlr)ni modellashtirish texnikasi va uslublari

Plastik material bilan tanishgandan keyingi texnikani egallash bosqichlan kichik, katta yoki «sakrab o'tish» yo'll bilan amalga oshadi. Bola bu jarayonlarni mustaqil yoki kattalarning yordamida o'zlashtiradi. Bitta jamoada ta'llim olayotgan har bir bolaning o'rganish jarayoni – o'z tempi, «yo'lakchasi» bo'ladi.

Barcha bolalar uchun umumiyl bo'lgan, tubdan muhim yutuq bu – plasifik material bilan ishlashda obraz yaratishdir. Birlamchi obraz yaratish – barcha badiiy faoliyatning xususiyatidir, shu qatorda modellashtirish hamdir.

Turli shakliarni har xil uslub va turli xil qo'l harakatlari bilan yaratilishi haqidagi tushunchalar.

Texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari asta-sekin tushunchalar bilan shakllantirildi. Bolaning qidiruv faoliyatini faollashtirish uchun vaqtiga vaqtiga bilan muammoli vaziyatlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, bodring va pomidorni ko'rsatib, uni yasashni taklif etish yoki ikkita har xil narsani o'ylab topib, yasashni taklif etish. Bunday topshinqlar orqali bolada turli xil obrazlar har xil uslublar bilan yaratilishi haqidagi o'z-o'zidan shakllanayotgan tushunchalar mustahkamlanadi.

Keyinchalik shu asosda bola nima qanday yasalishi haqidagi o'ziga xos emperik tizim, ya'ni sezgilar orqali tushunchalarga ega bo'ladi

Silindr shakli qanday yasaladi, qanday qilib umi o'zgartirish mumkin?

«Kundacha» yoki silindr – 1–1,5 yoshli bolaning mustaqil yasay oladigan bininchi shakli hisoblanadi. Keyinchalik u bu bilimini takomillashtiradi, uzun, qisqa, yo'g'on, ingichka, rang-barang, bir xir rangli silindrlarni yasaydi. Albatta, bu narsalar shunchaki emas, bular qalam, daraxt, cho'p, mix, konfet va boshqalarni ifoda etadi. 2,5–3 yoshga to'lgan bola shakllarga diqqatliroq qaraydi va anlqroq bajarishga harakat qiladi. Endi o'ziga tanish bo'lgan uslublar yoramida silindrni teshkulchaga, halqachalarga, shilliqqurtchaga aylantiradi.

Silindr shaklini yasash:

- plastik material bo'lagini kaftlar orasiga olib uzunasiga harakatlar bilan silindr hosil qilinadi;
- bir bo'lak plastik materialni bir kaft bilan qattiq sirt ustida to'g'n harakatlar bilan silindr hosil qilinadi;
- bir bo'lak plastik materialni katta va bosh barmoq uchida to'g'ri harakatlar bilan silindr hosil qilinadi; bu usulda juda kichkina silindrchalar va ingichkina cho'pchalar hosil bo'ladi;






Silindr shaklini o'zgartirish.

- yo'g'on va ingichka silindrchalarni aylanaga aylantirish (teshkulcha, piramida halqachalari, obruch);
- spiral shakliga burash (iloncha, shilliqurt, gul);
- yassilash usuli orqali tasmachaga aylantirish (barg, shar);
- konus shaklini berish (sabzi, qalpoqcha);
- 2–3 ta ingichka cho'pchalarni birlashtirib o'ram hosil qilish (soch o'nimi, o'simlik, kolonnalar).

Sharchasimon shaklini yaratish va uning shaklini o'zgartirish

Ilk yoshdagi bolalar tomonidan o'zlashtiriladigan yana bir shakl bu – sharcha. Bolalar zavq bllan olma, shirinliklarni yasab, qo'g'irchoqlarini mehmon qilishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, sharchani yasash texnikasi silindrni yasash texnikasidan murakkab hisoblanadi, chunki bu ikkala qo'lning aniq va izchii muvofiqlashtiruvchi harakat koordinasiyasini talab etadi.

Sharchasimon shaklini yaratish




Sharsimon shaklini yaratish.

- plastik materialning blr bo'lagini kaftlar orasida dumaloqlash harakati orqali;
- plastik materialning blr bo'lagini bitta kaftda qattiq sirt ustida dumaloqlatish harakati orqali;
- plastik materialning blr bo'lagini ikkita barmoq uchlda dumaloqlash harakati orqali; bunday usul bilan juda klchkina sharchalar («ko'zlar», «burun» va boshq.) hosil bo'ladi.

Sharcha shaklini o'zgartirish


- sharni ikkala tomondan ozgina cho'zib, oval yoki elleps hosil qilish;(kinder-syurpriz, pufak, qovun, tarvuz);
- bir tomonini cho'zish orqali hosil qilish (nok, lampochka);
- uzunasiga jo'valab, bir tomonga qayirish; (banana, bodning);
- kaftlar orasida yassilash (non, g'ildirak);
- uzunasiga jo'valab, bir tomonida konus shaklini hosil qilish; (muzqaymoq, piramidacha);
- sharchaning bir tomonini yassilash (qurtcha, shirin kulcha);
- sharchaning o'tasini barmoq yoki qalam bilan chuchurcha hosil qilish; (qo'ziqonin qalpoqchasi, piyola, guldon).



Sharcha, silindr dan yasaladigan shakllar – bu o'ziga xos bo'lgan modellashtirishning «alifbo»cha vazifasini bajaradi, shu asosda bola uni «o'qiydi» va har qanday «asarni» mustaqil yaratib, modellashtirish texnikasini o'rGANADI. Bolalar sharcha silindr, disk shakllarini yasash malakasini egallab olishgach, bir necha qismdan iborat predmetlarni yasashga o'tadilar. Masalan: samolyot, qorbobo, sharcha yoki disklardan minoracha, ayiq, qo'g'irchoq, quyoncha va hokazo. Bu predmet qismlari 2 yoki 3 tadan oshmaydi.



Masalan, samolyot 3 qismdan, qorbobo katta va kichik sharchalardan va boshqalar. Bu – bolalarning 9 oy davomida olgan bilim va malakalarini kengaytiradi. Yoz davomida bolalar har xil mevalarni, sabzavotlarni yasab, zarur bo'lgan malaka va ko'nlikmalarni egallaydilar. Tarblyachi informatsion-retseptiv va reproduktiv metodlardan keng foydalanadi.



Bolalar sharchalar, koptoklar, mevalar, qalamlar va boshqa predmetlarni yaxshilab ko'rib chiqadilar. Eng muhimi bu predmetlarni qo'l bilan ushlab ko'rishlari zarur.

Modellashtirish texnikasining usul va metodlarining xilma-xil, rang-barangligiga qaramay, mакtabgacha yoshdagi bolalar oson egallab olishadi.

Konstruktiv uslub

Modellashtirishning bu uslubi konstruktor qismlaridan yasalgan kabi alohida qismlardan yaratiladi (nomi ham shundan kelib chiqqan)

Tarbiyachi dastavval bolalarning diqqatini o'sha predmetning yirik qismlariga, so'ng mayda qismlariga, shakli va rangiga jalb etadi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi tasvirlashning texnik usullarini ko'rsatib, tushuntirib beradi. Shuningdek, u bolalarning loydan narsalar yasashida ko'proq o'yin usullaridan foydalanadi. Mashg'ulotlar predmetli xarakterga ega bo'ilb, bolalar alohida, yakka predmetlarni yasaydilar. Tarbiyachining bolalar ishlga baho berishi ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, u bolalarning qanday ishlaganlarini va ishni qanday bajarganliklarini aytib o'tishi lozim.

Bolalar o'ylab topgan obrazlarini tasavvur qilib, qanday qismlardan iboratligini anglagan holda yasaydilar. Ular 2–3 yoshdan boshlab konstruktorlik uslubi bllan yasashni boshlaydilar va ko'pincha o'zlariga bu «yangilikni» mustaqil «kashf etishadi».

Ko'p hollarda kichik yoshdag'i bolalarda modellashtirish quyidagi variantlarda namoyon bo'ladi:

- ikklta bir xil shaklni birlashtirish (munchoq, devor);
- o'xshash, ammo turli hajmdagi shakllarni birlashtinsh (halqachall piramida, qorbobo, sarak-sarak qo'g'irchoq, minora);
- turli shakllarni birlashtirish (qo'ziqonin, kapalak, qush).

Haykaltaroshlik uslubi

Bu uslub yana plastik yoki butun bo'lakdan modellashtirish deb ataladi.

Bolalar, dastlab, loy bo'lagining mayda qismlarini cho'zib chiqarishga, barmoq bilan chuqurcha hosil qilishga, buklashga, biriktirilgan qlsmini mahkam qilib yopishtirishga o'rganadilar. Chimdib chiqarishni esa, ular jo'ja va qushlarni yasashda o'zlashtiradilar. Bu jarayonda bolalar predmetlarni, ularning qismlarini shakl kattaligi jihatidan taqqoslashga o'rganadilar. Masalan, baliqni yasashdan oldin tanasini oval shakliga keltirib oladilar, so'ng uning bir tomonini salgina cho'zib va dumaloqlab, baliqning boshini, qaramaqarshi tomonini ko'proq cho'zib chiqarib, yapaloqlab, uning dumini yasaydilar, suzgichlarini chimdib chiqaradilar. Shuningdek, bolalar loy bo'lagini bir necha bo'lakka bo'lismi o'rganadilar. Masalan, yuqoridagilardan tashqari, idishlar yasashni o'zlashtiradilar. Ular idishlarni yakka usulda: ya'ni yumaloqsimon va silidrsimon shakllarni barmoq bllan bosib chuqurcha hosil qilish, bandini esa alohida loy bo'lagidan yoki asosiy loy bo'lagidan cho'zib chiqarib yasashlari mumkin. Bolalar olgan bilim va malakalarini oshirib, mustahkamlaydilar. Tarbiyachi ularni tipratikan, sichqon, meva solingan idishcha, qo'ziqorin solingan savatcha kabilarni ham loydan yasashga o'rgatib boradi. Bolalar boshlagan ishlarini oxiriga etkazshga mustaqil ishlashga, o'z ishlarini yangi detallar bilan boyitib borishga o'rganadilar.

Kombinatsiyalashgan uslub

Bu uslub ikkita uslubni o'z ichiga oladi: konstruksiyalash va haykaltaroshlik uslublaridir. Bola hayotining oltinchi yllida tevarak-atrof haqidagi bilimlari, turmush tajribasi kengaya boradi. Uning qo'l muskullari mustahkamlanib taraqqiy etadi. U qo'l barmoqlari bilan nozik harakatlarni bajara oladigan bo'ladi. Uning ruhiy

holatida ham slfat o'zgarishi yuz beradi. Xotirasi o'sadi, diqqat ham tobora barqaror bo'ladi.

Bolalar oldin predmetni yasashda uning qismlarini va qismlarning shakli, uning xususiyatlarini aniq tasavvur eta oladilar. Shu bilan blrga, ular predmetlarni ko'proq harakatda tasvirlashga intiladilar. Bolalarni loy ishlanga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: predmet shaklini, proporsiyasini, uning tuzilishini, xarakterli detallarini va xarakatini tasvirlash va boshqalar. Ular idishlar yasab, so'ng ularni bo'yaydilar, dekorativ plastinkalar yasab, ularni bezaydilar. Bu guruhda bolalar sujet mazmun asosida ishlaydilar.

Texnik usullar ham bu guruhda murakkablashadi. 4 yoshli bolalar narsalarni qismlardan yasashsa, 5–6 yoshga kelib, butun blr loy bo'lagidan yasaydilar. Shu bilan birga stek bllan ishlashga ham keng imkoniyat yoki o'rin ajratiladi. Bolalar, dastavval, o'zlariga tanish bo'lgan sodda predmetlarni yasaydilar. Ular loy bilan ishlashning ikki usuli: konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. Bodning, lavlagi, sabzi, olmaning ikki xil turi. Bolalar shu ikki usulda odam va hayvonlar shakllarni yasaydilar. Bu ishlarning mazmuni asosan o'yinchoqlaridan olinadi.

Plastik materiallar bilan ishlashda turli yordamchi usul va metodlardan foydalilanadi. Bolalarni predmetning sifatlarini loydan tasvirlashga o'rgatib boriladi. Masalan: uzun, qisqa, ingichka, kalta, shuningdek, predmetlarni vertikal, tik holatda o'rnatadilar, qismlarni mahkam biriktirishga, birlashtirilgan qismlarni sillqlashga o'rganadilar. Bolalar asta-sekin o'z ishlariga mazmun benishga harakat qiladilar, asosan, bir butun loy bo'lagidan haykaltaroshlik usulida yasaydilar. Masalan: mushuk, kuchuk, quyon va boshqalar. Butun bir loy bo'lagidan tasmasimon usulda idishlar yasaydilar, so'ng ularni bezaydilar. Bolalar o'zlanga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Masalan: xo'roz, tovuq, o'rdak, jo'ja va boshqalar. Ixtiyoriy loy ishlarni ko'proq natura asosida bajaradilar.

Dastavval, predmetni yoki naturani kuzatib, predmetning shaklini, qismlarini, proporsiyasini barmoq harakatlari bilan ko'rib chiqishlari mumkin. Agar bolalar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasaydilar, agar bilishmasa, unda tarbiyachi qisman ko'rsatib berishi mumkin. Ishlarni bajarishda turli vostilardan foydalansa bo'ladi. Flomaster va turli idishlarning qalpoqchalaridan yasalgan baliq «tangachalarini» iz qoldirish uchun ishlatish tavsiya etiladi.

Stek yordamida ko'p harakatlar bajarish mumkin. Masalan: yasalgan buyum ustida shtrixlar, «qanoatchalarni» burtib chiqarsa bo'ladi.

Yasalgan o'yinchoqlarga munchoqlar, tugmalar, qushlar patlari, chig'anoqlar yordamida mayda qismlarni bezaklar berib kombinatsiyashatirsa bo'ladi.

1.3. Polimer loy(chinni xamir)dan obrazlarni yaratish texnologiyalari

Polimer loydan moychechak guli shaklini modellashtirish



1. Gulning o'rtasi.

Polimer loy (chinni xamir)ning bir bo'lagi olinadi va sharcha shakli yasaladi. Sharcha shakli yassilanib, gugurt cho'pi yordamida teshikchalar qilinadi.



2. Yaproqlar.

5–7 dona kichkina loy bo'lakchalar olinadi; plastik material bo'lagini kaftlar orasiga olib, uzunasiga harakatlar bilan qalamchalar hosil qilinadi; qalamchaning bir uchi uchli, ikkinchi tomoni esa yassilanadi.



Polimer loydan qurt-qumursqalar shakllarini modellashtirish namunaları



Polimer loydan arı shaklini modellashtirish

Saniq yoki zarg'aldoq rangli pollmer loy (chinni xamir)dan sharcha yasab, tuxum shakliga kelguncha cho'ziladi, qora rangli loydan ingichka tasmachalarni tuxumchaning ustiga yopishtiriladi – bu arining tanasi bo'ladi.

Yassilangan sharchalardan qanotlan yasalib, tanasiga yopishtiriladi. Anning boshi qora rangli loydan sharcha yasalib, tanasiga yopishtiriladi. Klchkina dumaloqlangan sharchalardan ikkita ko'z yasalib, ular ham bosh qismiga yopishtiriladi. Gugurt cho'plardan arining mo'ylovlari bosh qismining old tomonlga qo'ndiriladi.



Polimer loydan chumoli shaklini modellashtirish

Chumolining tanasi uch qismdan iborat bo'ladi – bosh qismi, ko'krak qismi, katta qorin qismi; oyoqchalarini loydan yoki cho'plardan ko'krak qismiga birlashtiriladi; mo'ylovini simdan shakllantirib, bosh qismliga ulanadi.



Polimer loydan chigirtka shaklini modellashtirish

Chigirtka chumolidan hajmi, oyoqlarining joylashinushi bilan farq qilladi. Qanotini loydan yoki qog'ozdan yasab, ko'krak qismining tepe tomoniga birlashtiriladi.



Polimer loydan kapalaklar shaklini modellashtirish

1. Kapalaklar juda oddiy usulda: tanasi loyni silindr shaklida cho'zish yo'li bilan yasaladi.

2. Qanotlari yapaloqlangan sharchadan shakllantiriladi, mo'ylovleri esa sim yoki loydan ingichka cho'pchalar yasalib, birlktiriladi.



3. Murakkab usuldan foydalanib yasasa ham bo'ladi: bosh va ko'krak qismini sharchadan, qorin qismini esa yo'g'on silindrcha yasab, uchala qismi birlashtiriladi.

4. Qanotlari yapaloqlangan sharchaga boshqa rangdagi loydan olib, bezaklar bllan bezatiladi.



5. Stek bilan qanotlanini chiziqlar bilan chizib chiqiladi, ko'zlan o'rniiga munchoqlardan foydalansa bo'ladi.

Polimer loydan tovuq va jo'jalar shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Sariq, qizil, zarg'aldoq, jigarrang rangdagi polimer loy(chinni xamir), namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalamstek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Tanasini modellashtirish.

Tanasini modellashtirish uchun sharcha yasaladi va tuxumslmon holatga keltiriladi. Bosh qismi uchun sharcha dumaloqlanadi; bo'yin uchun silindrcha yasalib, unga boshi va tanasi birlashtinladi.



Jo'jalarga bo'yin kerak emas: bosh qismi tanasiga bintiriladi.

2. Bosh qismini modellashtirish.

Tovuqning toji va tumshug'i qizii rangdagi loydan yasaladi. Tojni modellashtirish uchun silindrcha yasaladi va yassilanadi. Yassilangan tasmaning cheti chimchilab chiqiladi. Tumshug'i uchun – ikkita kichkina plramlda yasaladi.



3. Qanot va dumini modellashtirish.

Qanotlar uchun ikkita sharcha yassilanadi, stek bilan «patlan» chiziladi. Jo'jalar uchun faqat tumshug'ini yasab, biriktiriladi.



4. Taglik.

Konus shaklidan oddiy va qulay bo'lgan taglik modellashtiriladi.



Polimer loydan xo'roz shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Sariq, qizil, zarg'aldoq, ko'k, jigarrang, yashil rangdagi polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Tana qismini modellashtirish.

Tanasini modellashtirish ucbun sharcha yasaladi, tuxumsimon holatga keltiriladi. Bosh qismi uchun sharcha dumaloqlanadi; bo'yin uchun silindrcha yasaladi va unga boshi va tanasi birlashtiriladi.

Qizil rangdagi chinni xamirdan toji, tumshug'i, bobog'i yasaladi.



2. Taglik.

Konus shaklidan oddiy va qulay bo'lgan taglik modellashtiriladi.



3. Dum qismini modellashtirish.

Ko'k, yashil rangdagi 3–5 dona silindrda tasmachalar yassilanadi va bir tomoni uchlanadi.



4. Qanot qismini modellashtirish.

Tovuqqa yasalgan qanotlar kabi yasaladi, naqsh bilan bezaklar beriladi.

Xo'rozning oldiga tovuq va bir necha jo'jalar qo'yiladi. «Xo'roz oilasi bilan» kompozitsiyasi hosil bo'ladi.



Pollmer loydan kurkani modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Sariq, qizil, zarg'aldoq, ko'k, jigarrang rangdagi polimer loy (chinni xamir), namunall ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Tana va bosh qismini modellashtirish.

Tana va bosh qismini haykaltaroshlik uslubidan foydalanib modellashtirsa bo'ladi, ya'ni blr butun bo'lakni olib, boshi va tanasini cho'zish usuli bilan shakllantirish tavsiya etiladi.



2. Oyoq qismini modellashtirish.

Kurka oyog'ida mustahkam va tik tunishi uchun yo'g'on silindrchalar yasaladi, barmoqlari shakllantiriladi.



3. Toj va baboq qismini modellashtirish.

Toj va baboq'ini kichkina sharchalardan tashkil topgan tomchi shakllardan modellashtiriladi.



4. Qanot va dum qismini modeliashtirish.

Qanotlari uchun 2 ta klchkina, dum qimi uchun 1 ta katta sharcha dumaloqlanib, yassilanadi. Qanot va dum qismlarga boshqa ranglardan bezak beniladi. Bezak berilgan dum va qanotlar tana qismliga binktiriladi.



Polimer loydan g'oz va o'rdakni modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Sariq, qlzil, zarg'aldoq, ko'k, jigarrang rangdagi polimer loy (chinni xamlr), namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Bosh va tana qismini modellashtirish.

O'rdak va g'ozning tanasini modellashtirish uchun sharcha yasaladi, tuxumsimon holatga keltiriladi. Bosh qismi uchun sharcha dumaloqlanadi; bo'yin uchun silindrcha yasaladi va unga boshi va tanasi birlashtiriladi. G'ozning bo'yin qismi uzunroq bo'ladi.



2. Oyoq qismini modellashtirish.

O'rdak va g'oz oyog'ida mustahkam va tik turishi uchun yo'g'on silindrchalar yasaladi, barmoqlar o'rniغا suzgichlar shakllantiriladi.



3. Qanot va dumini modellashtirish.

Qanotlar uchun ikkita sharcha yassilanadi, stek bilan «patlari» chiziladi. Dum qismini modellashtirish uchun konus shakil yasalib, stek bilan uch qismiga kesiladi.

4. Tumshuq qismini modellashtirish.

Tumshug'ini yasash uchun qizil rangdagi loydan konus shakli bosh qismiga biriktiriladi va konusning uchi tepaga qayiriladi.




Polimer loydan zag'izg'on shaklini modellashtirish texnologiyasi




Kerakli jihozlar:

Siyoh, ko'k, sariq, zarg'aldoq, jigarrang, qora rangli polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.



Zag'izg'on tanasini modellashtirish uchun sharcha yasaladi, tuxumsimon holatga keltiriladi. Bo'yin uchun silindrchadan tasma yasaladi va unga boshi va tanasi birlashtiriladi (1); bosh qismi uchun sharcha dumaloqlanadi (2); tumshug'i va ko'zlarini shakllantirib, yopishtiriladi (3).



Qariotlar uchun ikkita sharcha yassilanadi, stek bilan «patlari» chiziladi. Dum qismini modeliashtirish uchun silindrcha shakli yasalib, yassilanadi.

Tayyor bo'lgan zag'izg'onni taglikka o'rnatiladi.


Polimer loydan kaklik shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Jigarrang, ko'k, qlzil, siyoh rangdagi polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namuriasi.

Kaklik tanasini modellashtirish uchun sharcha yasaladi, tuxumsimon holatga keltiriladi. Bo'yin uchun silindrchadan tasma yasaladi va unga boshi va tanasi birlashtiriladi (1); bosh qismi uchun sharcha yasaladi (2); tumshug'i va ko'zlarini shakllaritirib, yopishtiriladi.



Qanotlar uchun ikkita sharcha yassilanadi, stek bilan «patlari» chiziladi. Dum qismini modellashtirish uchun silindrcha shakli yasalib, yassilanib, ikki tomoniga qayinib qo'ylladi.

Polimer loydan boyqush shaklini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Siyoh, ko'k, sanq, zarg'aldoq, jigarrang, qora rangli polimer loy (chinni xamlr), namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.



Boyqush tanasini modellashtirish uchun kattaroq sharcha yasaladi, tuxumsimon holatga keltiriladi. Boyqushning bo'yin qismi bo'Imagani sababli tumshug'i va ko'zlari tana qismiga joylashtinladi (1); boyqushning tumshug'i biroz pastga qayrilgan holatda bo'ladi. Qanotlan ham tanasiga blikkan holatda bo'ladi (2). Boyqushning tanasi tik holatda turadi.

Polimer loydan chumchuq shaklini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Sariq, zarg'aldoq, jigarrang, qora rangli polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

Chumchuq ham barcha qushlar kabi yasaladi. Boshqa qushlardan hajmining kichikligi bilan farqlanadi.



Polimer loydan qo'y shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Yashil, pushti, siyoh, qora va ko'k rangdagi polimer loy (chinni xamlr), namunali shish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalamstek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Qo'yning tana qismini modellashtirish.

Katta sharcha shakli yasaladi va cho'zinchoq holatga keltiriladi.



2. Qo'yning bosh qismini modellashtirish.

Katta bo'Imagan loydan, qo'yning bosh qismi xuddi tanasi kabi yasaladi; qo'yning yuz qismi va quloqlari yasalib, shakllantiriladi.



3. Qo'yning oyoq qismini modellashtirish.

4 ta bir xil silindrchalardan oyoqlar modellashtiriladi. Qora rangli loydan olinib, tuyyoqlari yasaladi.



4. Qo'yning mo'ynasini modellashtirish.

Qo'yning tanasi gajaklar bilan bezatiladi: polimer loydan ko'p uzun cho'pchalar yasaladi va spiral holatga keltiriladi hamda qo'yning tanasiga yelimlanadi.



Polimer loydan xo'tlkcha shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Siyoh, sanq zarg'aldoq, ko'k, pushti, qora rangdagi polimer loy (chinni xamlr), namunali ish va uning ko'chirma nusxalarini, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Xo'tikchaning tana qismini modellashtirish.

Katta shar sbakli yasaladi va cho'zinchoq holatga keltiriladi. Ikkita uchi dumaloqlanadi.




2. Xo'tikchaning bosh qismini modellashtirish.

Katta bo'limgan loy olinib, xo'tikchaning bosh qismi xuddi tanasi kabi yasaladi; xo'tikchaning yuz qismiga quloqlanib yasalib, shakllantiriladi.



3. Xo'tikchaning bo'yin qismini modellashtirish.

Loydan silindrcha hosil qilinadi va bo'yin qismi shakllantiriladi. Bo'yin qismi tanasiga yopishtiriladi.



4. Xo'tikchaning oyoq qismini modellashtirish.

4 ta bir xil silindrchalardan oyoqlar modellashtiriladi. Qora rangli loydan ollib, tuyyoqlari yasaladi.



5. Qismlarni birlashtirish.

Bosh qismi va tumshug'ini yasash: ko'p hajmda bo'lмаган loydan silindrcha hosil qilinadi, quloqlar shakllantiriladi, bosh qismida ko'z, og'iz va tumshug qismida burun, burunning teshikchalar shakllantirilladi. Xo'tikchaning mo'ynasi va dum qismi modellashtirilladi. Barcha detallar o'zaro birlashtirilladi.

Polimer loydan tulki shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Zarg'aldoq, sanq, oq, jigarrang, qora rangdagi polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning ko'chlrma nusxalarini, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.



Zarg'aldoq rangli loydan silindrcha hosil qilinadi, tulkining tanasi bodring shaklga keltiriladi. Tanasining past qismiga yassilangan sariq rangli loydan yopishtiriladi.



Tulkining old oyoqlari ingichkarq yasaladi. Oyoqlarining uchi uchliroq qilib qayinib qo'yiladi, orqa oyoqlari esa, yo'g'on qilib yasaladi.

Oyoqlar tulkining tanasiga binktiriladi. Tulkining dumi shakllantirilladi, uchi esa, och rangdagi loydan modellashtiriladi.



Tulkining boshini tayyorlash: dumaloq shakl yasaladi, blr uchidan cho'zib, tumshug'ini yuqoriga blroz ko'tariladi. Ikkita ko'z, quloq yopishtiriladi. Og'zini esa, stek bilan qirqiladi.



Pollmer loydan bo'ri shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Kulrang, ko'k, jigar rang, qora, siyoh rangdagi polimer loy (chinni xamlr), namunali ish va uning ko'chlirma nusxalanai, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.



Bo'rnining tanasi bodring shaklidek yasaladi. Tanasining old tomoniga boshqa rangdag'i loydan qo'shimcha «kulcha» shakli yopishtiriladi.

Bo'ri tanasining old tomoni yo'g'on, orqa tomoni ingichkalashadi.



Loydan dumaloq shakl yasalib, tumshug'i bir oz cho'ziladi. Peshona qismi shakllantiriladi. Quloqlarini tepaga dikkaytirib yopishtiriladi. Quloqlarining o'rtasiga pushti rangll loy bo'lakchalaridan silindirsimon kulcha shakllantirib yopishtiriladi. Bo'rining burni va ko'zlan qora rangll kichkina loy bo'lakchalaridan olinadi, shakllantirilladi va yopishtiriladi.

Bo'rining bosh qismi tanasiga yopishtiriladi.



Bo'rining oyoqlari tulkining oyoqlari kabi shakllantiladi va tanasiga biriktiriladi.



Bo'rining bosh qismini tana qismiga birlashtirib, dum qismi shakllantiriladi va silindrcha hosll qilinib, uchi uchlanadi va tanasiga binktiriladi.

Polimer loydan ayiqcha shaklini modellashtirish texnologiyasi




Kerakli jihozlar:

Jigarrang, saniq, qora rangdagi polimer loy (chlnni xamlr), namunali ish va uning ko'chirma nusxalan, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

Ayiqning tanasi tuxumsimon shaklda yasaladi.



Ayiqning bosh qismi: dumaloq shakl yasaladi, katta bo'Imagan loydan tumshuq yasalib, ko'z va burunlan yopishtiriladi. Jigarrang ikkita katta bo'Imagan dumaloq shakllar yasalib, quloqlar yassilanadi va bosh qisminirig tepasiga yopishtiriladi. Ayiqning bosh qismi tanasiga birlashtiriladi. Birlash tirilgan joyi slliqlanadi.



Pastki oyoqlar dumaloq shakldan yasalab, yarim aylana holatga keltiniladi. Stek – qalamcha bilan panjalari shakllantiriladi. Pastki oyoqlari ayiqning pastiga birlasbtiriladi.



Old oyoqlari uchun ikkita silindrchadan «bodringchalar» shakllantiriladi. Qalam-stek bilan panjalan shakllantiriladi. Ayiqning tepe tomoniga birlashtiriladi.

Polimer loydan jirafa shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Sariq yoki zarg'aldoq va jigarrangdag'i polimer loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Jirafaning tana qismini modellashtirish.

Jirafa haykalchasini yasash uchun: tanasiga silindr dan katta tuxumsimon, bosh qismi uchun klchkina dumaloq shakl yasaladi.



2. Bosh va bo'yin qismini modellashtirish.

Jirafaning bo'yin qismi uzun silindr shaklga keltiriladi va bosh qismi biriktiriladi.



3. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish.

Namunadagi tasvirga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga anqlik kiritiladi.

Jirafa tasvirining mayda qismlari tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qismiga biriktirib chiqiladi.



Pastki oyoqlar dumaloq shakldan yasallib, silindr holatga keltiriladi. Pastki oyoqlari jirafa tanasining pastiga birlashtiriladi. Namunadagi tasvirga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga anlqlik kiritiladi.



Polimer loydan filcha shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:

Ko'k, oq, qora rangdagi polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning ko'chirma nusxalan, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Filchaning tana va bosh qismini modellashtirish.

Filcha haykali uchun tana va bosh qismi, ikkita quloq, ikkita ko'z, xartum, to'rtta oyoq, dum qismlarini yasash kerak bo'ladi.



Tana qismi uchun katta, bosh qismi uchun klchkina sharcha shakli yasaladi va birlashtiriladi.



2. Filning xartumi va quloqlarini modelláshtirish.

Filchaning xartumini yasash uchun sharchadan silindr shakli yasaladi, xartuming bir tomonida uchli qalam-stek bilan teshikcha teshiladi.



Quloqlari uchun ikkita katta bo'lmagan sharcha dumoqlanib, yassilanib, bosh qismiga birlashtiriladi.

3. Filning oyoqlarini modellashtirish.

Filchaning oyoqlari uchun to'rtta katta bo'lmagan silindrcha yasaladi va blrlashtiriladi.

Mayda qismlari: ko'z, xartum va tishlari tayyorlanib, biriktiriladi.





2.1. Plastilining xususiyatlari

Tasviriy faoliyatning loy ishi mashg'ulotlarida plastilindan foydalaniлади, улардан турли о'инчоqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahromonlari yasaladi. Plastilindan asosan klchik modellarni yashashda foydalaniлади. U **su'niy plastik massa** bo'lib, loyga o'xshab qurimasligi va dolm ishlatishga tayyorligi blian farqlanadi.



Plastilin maxsus loydan, kukundan, yog' va turli plgmentlar qo'shish bilan tayyorlanadi. Plastilin bir yoki bir necha ranglarda bo'ladi. U dolmiy holda ishga tayyor bo'ladi. Plastilindan blr yoki blr necha rangdagi narsalar va predmetlar tasvirini yaratish mumkin. Plastilin issiqda yumshab, sovuqda qotish xususiyatiga ega. Shu boisdan plastilin sovuq xonada saqlansa, uni ishlatish oldidan issiq suvga solib olish lozim. Plastilinni oz vaqt qo'lda ushlanib, ezib turilsa, albatta u yumshaydi va ish holati yaxshilanadi. Ammo uni uzoq qo'lda ushlab turmaslik kerak. Chunki, uni uzoq qo'lda ushlab turilsa, o'z holatini yo'qta boshlaydi.

Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari mavjud. Plastilin turli narsalar yashash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi blian farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bor.

Birinchi usul: toza quyuq loyga glitserin qo'shib, bir turli massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinci usul: quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdag'i quruq bo'yoq massasi qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi.

Uchinchi usul: 1 qlsm tuproqqa 1/5 qism llitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi. Plastilindan narsalar yashashni, u qo'lda yaxshilab ezilgandan keyln boshlash kerak.

Plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarning maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltoroshlik elementari asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har blr pedagogdan mazkur soha bo'yicha ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun pedagoglar o'z ustlarida ko'proq ishslashlari, haykaltoroshlik asoslarini yaxshl bilib olishlari kerak bo'ladi. Haykaltoroshlik – tasviriy san'at turlidan biri. San'atning bu tunning xususiyati tasvirning hajmi – shakildir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltoroshlik yolg'iz tur emas. Undan tashqari, barelyef mavjud relyef aylana haykaltoroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltoroshlik shakllandan idish-tovoq sathini, binolarning old tomoni, interyeri va shu kabilarni bezashda foydalaniadi. Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan usullar.

Yumaloqlik – bu blr bo'lak plastilindan sharcha yashash, unga olcha, olma kabilalar shaklini berishdan iborat. Bir bo'lak plastilindan kaftda aylana harakatlar bilan sharcha yasaladi.

Sharcha yashash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

Yassilash – sharchadan yassi non yasaladi, qo'lning holati doimo o'zgarib turadi.

Cho'zish – sharchaning bir qismi cho'ziladi.

Sunsh (yamash) – buyumning aynim qismlarini o'zaro biriktiresh.

Loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda ish joyining bekam-ko'st jihozlanganligi muhlm ahamlyatga ega. Plastilindan o'yinchoqlar yashash jarayonida bolalarning mehnat malakalari shakllanadi. Masalan, yeng shimarib ishlash, ish o'rnini ozoda va tartibli saqlash, aylanadigan doirali dastgohdan foydalinish odatlari hamda predmetning hamma tomoniga ishlov berish zarurligi haqida tushuncha hosil bo'ladi. Loy va plastilindan o'yinchoq yashash ba'zan mashg'ulotlarni tashkil etishga alohida yondashishni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasida loy yoki plastilindan buyum va o'yinchoqlar yasash to'g'risida gapirganlmizda, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning tevarak-atroflaridagi voqyelikni aks ettirishini, plastilindan foydalanim elementar buyumlar (turli hayvonlarning haykalarli, idish-tovoqlar) yaratishini nazarda tutamiz.

Bolaning hatto eng oddiy buyumni yasashi ham ijodiy jarayondir. Chunonchi, loyning sharsimon bir bo'lagi ham jippi go'dakda koptok, apelsin, olma, uchlari birlashtirib dumaloqlangan loy ustuncha esa halqa, teshikkulcha bo'ilb tuyuladi. Ish vaqtida bola loyni turli shaklga solib o'ynar ekan, uning yumshoqligidan, hajmiliigidan zavqlanadi, o'zi yasagan shaklga qarab xursand bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalanda loy ishlari kichik guruhdan boshlanadi. Bu guruhda bolalarning loy ishlari, boshqa guruxlardan ajralib, o'ziga hos xususiyatga ega bo'ladi. Bolalar tasvirlayotgan shakllar noaniq, chunki bu yoshda bolalarning qo'l harakati rivojlanmagan, qo'l muskullan hali o'smagan, shuningdek, ishlarni kuzatib, nazorat qilib borish xususiyatlari hali rivojlanmagan bo'ladi. Bu yoshdag'i bolalar uchun loy bilan ishlashda eng muhimi loyning xususiyatlari bilan tanishishdir, ya'ni loy yumshoq, yopishqoq va hokazo. Shu sababli bolalar bu guruhda loyning xususiyatldan kelib chiqib o'yinlar o'ynaydilar. Shuning uchun bu davr tasvirlashgacha bo'lgan davr deb ataladi. Bu davr quyldagi harakatlar bilan xarakterlanadi: bolalar loyni blr necha bo'lakka bo'ladilar, blrni ikkinchisining ustiga joylashtiradilar, taxtacha ustida aylantinb, uni taxta ustida yapaloqlaydilar, ammo bu harakatlarni hech qanday maqsadsiz bajaradilar. Bolalar asta-sekin tarbiyachi yordamlda loyni ikki kaft orasida doiraviy, uzunasiga harakatlantirib, sodda, yakka predmetlarni yasashga o'rganib boradilar. Masalan: olma, tayoqchalar, halqachalar, qo'ziqorinlar.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlari orqali bolalar ma'naviyatini shakllantirish mumkin. Plastilin va loy ishi tasviny san'atning haykaltaroshilk va amaliy san'atning muhim turlaridan bo'lgan kulolchilik san'ati bilan mustahkam bog'liqidir.

Ishlab chiqanish plastilinni tayyor holda ishlash uchun tavsiya qiladi. Plastilin maxsus loydan, kukunlardan, ularga yog' va turli pigmentlar qo'shish orqali tayyorlanadi. Plastilin bir yoki bir necha ranglarda bo'lib, doim blron narsa yasashga tayyor bo'ladi. Plastilindan bir yoki bir necha rangdagi narsalar va predmetlar tasviri ishlanishi mumkin. Plastilin issikda yumshab, sovuqda qotish xususiyatiga ega. Shu bois plastilin sovuq xonada saqlansa, uni ishlatish oldidan issiq suvga solib olish lozim. Plastilinni oz vaqt qo'lda ushlanib, ezib turilsa, albattra, u yumshaydi va ishlatish holati yaxshilanadi. Ammo uni uzoq qo'lda ushlab turmaslik kerak. Chunki, uni uzoq qo'lda ushlab turilsa, o'z holatini yo'qota boshlaydi.

Loy va plastilin bilan bajariladigan barcha ishlar qo'lda bajariladi. Ma'lumki, loy va plastilin bllan ishlash ikki usulda cho'zish va uzib-yopishtirish bilan amalga oshiriladi.

Cho'zish usulida tasviri yasaladigan narsa uchun yetarli holda plastilin yoki loy olinib, uni ish holatiga keltirib, narsaning asosiy qismi tayyorlanadi, so'ngra birin-ketin elementlari cho'ziladi, so'ngra esa uni natura shakliga keltiriladi. Ishlanayotgan tasvir tez-tez natura bilan sollshtirib tuniladi. Qo'l bilan narsaning ayrim elementlarini shaklga keltirishda qiyinchilik tug'ilsa, uni pichoqcha (stek) bilan bajarlladi. Pichoqcha narsalar tasviridagi ortiqcha joylarini kesib olish, chuqurlarini tekislash va pardozlash ishlarini bajarishda qo'ilaniladi.

Uzib-yopishtirish usulida ishslash uchun yasaladigan narsaning shakli qismlarga bo'linib, ularning har biriga yetarli plastilin yoki loy olinib, alohida shaklga keltirilladi va katta qismdagi o'z o'rnlariga yopishtiriladi.

Hosil bo'lgan tasvir pichoqcha va qo'l bilan pardozlanadi. Loy va plastilin bilan ishslash ham xuddi rasm chizish kabi oddiy predmetlar shaklini tasvirlashdan boshlanib, asta-sekin mashg'ulotlar mazmuni murakkablashtinib boriladi.

Kichik guruh bolalarning loyni kaftlarida dumaloqlab narsalar yasash haqidagi bilimlarni egallashlarida ularning qiziqlishi hisobga olinadi. Bolalarni bo'yoqlar, chiziqlar, guvalachalarni bilib olishga, ular qanday predmat va hodisalarni ifodalashi mumkinligini tushunishga o'rgatiladi. Tarbiyachi bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi va murakkab bo'Imagan predmetlarni ko'rsatma bo'yicha va mustaqil qaytadan yasashga o'rgatadi. Chizilgan, yasalgan obrazlarni bola xuddi jonlidek idrok qiladi va undan zavq oladi.

Ushbu guruhdagi tasviriy faoliyat dasturi esa, ancha murakkablashadi, chunki asosiy e'tibor shakl hosil qiluvchi harakatlarni egallashga qaratilgan.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o'yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahromonlari yasaladi. Plastilindan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniлади. U su'niy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qunimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilarning har xil — oddiy va murakkab turlari bo'lib, retseptlari mavjud.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib, bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan plastilin qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinci variant – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasi qo'shib, puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

Uchinchi variant – 1 qism loy tuprog'ida 0,5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga yetuncha glitserin qo'shib aralashtiriladi. Plastilindan narsalar yasashda uni qo'lda yaxshilab ezilgandan keyin boshlash kerak. Plastilin bilan ishlashda steklardan foydalaniladi.

Tasviri faoliyat mashg'ulotlarida loydan foydalanib, undan turli o'yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahromonlari yasaladi. Loy o'zining xossasiga ko'ra yumshoq, yopishqoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kinish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Bunday loyni tayyorlash uchun tuproq tanlanadi. Tuprok jigarrang, qo'ng'ir bo'lib, ular ikki xil xususiyatda, quruq va yog'li bo'ladi. Yog'li tuproq quruq tuproqqa nisbatan namligi yaxshi, donadorligi yuqori, yopishqoq, yumshoq, tekislanish va pardozlanish xususiyati yaxshi bo'ladi. Odatda, bir siqim tuproqni olib, suvgaga solinadi va yopishqoqligi, ilashimligi tekshiriladi.

Loy tayyorlash mumkin bo'lgan tuproqni tanlab, uni yaxshilab eziladi va elakdan o'tkaziladi. So'ngra uni yog'och yoki plastmassa idishga solib, suv quyiladi, suv to'la shimdirligandan so'ng 1–2 kun saqlanadi, so'ngra yana suv quyib qoriladi. Loy yopishqoq, yagona massali, qo'lga yopishmaydigan, yaxshi silliqlanish va elastiklik holatiga yetguncha ishlanadi. So'ngra, loyni polietilen xaltaga solib, havo o'tkazmaydigan holda o'raladi. Undan bir necha mashg'ulotda foydalanish mumkin. Chunki, bu holda loyni bir oy yo ikki-uch oy, yoki yillab saqlash mumkin.

Loy qancha ko'p saqlansa, u shunchalik yopishqoq bo'lib, elastiklik va silliqlanish xususiyati ortib boradi.

Mashg'ulotlarda tayyorlab qo'yilgan loydan ma'lum qismi kesib olinib, unga yana ishlov beriladi. Qo'lga yopishmaydigan holga kelgunga qadar ishlanadi. Loy qo'lga yopishmaydigan, lekin o'z massasiga yaxshi yopishadigan va plastiklik holati yaxshi bo'lsa, bunday loydan har qanday shakl yasash mumkin bo'ladi.

O'yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi. Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Loyning tarkibida boshka narsalar (tosh, qum va shu kabilar) bo'lmasiligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ishni boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi. Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar: pichoq, oddiy konstruksiyadagi yog'och va metall uchli steklardan foydalaniladi.

Tarbiyachi bolalarning e'tiborini loy va plastilindan narsalar yasashga jalb qilar ekan, o'ynash uchun ayiqcha yoki xo'rozchani qanday yasash mumkinligini ko'rsatadi. Bolalar yasalgan narsalarga qarab, o'zlari birorta qiziqroq narsa yasashga intiladilar.

Kichkintoylar o'ylab qo'ygan narsalarning mazmunini ham to'liq bera olmaydilar. Shuning uchun biror personajning shaklini yasab, uning harakatini so'z bilan to'ldiradilar (mashina yuryapti, quyon sakrayapti va hokazo).

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda loy mashg'ulotlari orqali kulolchilik kasbiiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish katta ahamiyatga ega. U maktabda muvaffaqiyatlil o'qish uchun zarur xususiyatlar — ko'rib idrok etishni, xotirani, obrazli fikrlashni rivojlantirishga, qo'l mehnati ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Loy mashg'ulotlarida turli buyumlar va o'yinchoqlar yasash tasviriy faoliyatning boshqa turlari singari, estetik didni shakliantiradi, go'zailikni his qilishga, uning rang-barangligini tushunishga o'rgatadi.

Kichik guruh bolalari loy ishlariiga ancha tayyor bo'lib, ularning ko'nchiligi loy ishlari, loy va uning xususiyati bilan tanish bo'ladilar. Loydan narsalar yasashning oddiy texnik usullarini biladilar. Lekin shu bilan birga bu guruhdagi bolalarda hali qo'l harakatlan, shuningdek, o'yagan fikrlarini ro'yobga chiqarishda qat'iylik bo'lmaydi. Loy bilan ishlashda malakaviy texnik ko'nikmalar yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli bu guruhda tarbiyachi bolalar egallagan tasviriy uquvi va malakasini mustahkamlash ustida ishlaydi. Bu guruhda bolalarni loy ishlariiga o'rgatish vazifalari bir yarim yillik bo'lib berilgan. Bu vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin: bolalarda loydan narsalar yasash xohishini uyg'otish, shu bilan bog'liq ravishda estetik sezgilarini o'stirish, loy bilan ishlash vaqtida o'z diqqatini predmetning shakliga va katta-kichikligiga tortish yoki qaratishga o'rgatish. Bolalar oddiy predmetlarni – tayoqcha, qalamchalar yasashni yasash jarayonida ikkala kaft, qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'rganadilar. So'ng asta-sekin bolalar bilan keyingi bosqichga o'tiladi. Bunda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan predmetni o'zgartirib, boshqasini hosil qilishga o'rganadilar. Masalan: tayoqchani buklab, halqacha yoki buzik hosil qilish orqali tanish predmetlarni yasashda bolalar qo'l kaftlari bilan ishlashdan, qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'tadilar, shu bilan birga loy bilan ishlash qoidalariga o'rganib boradilar: stolni va o'z kiyimini iflos qilmaslik, loy bilan ishlaganda yengjni shimarib olish, taxtacha ustida ishlash, ishdan so'ng qo'lni yuvish va hokazo.

Bolalar halqacha va tayoqchasimon predmetlarni yasashni o'zlashtirib olishgach, dumaloq shakldagi predmetlarni yasashga o'rgana boshlaydilar, ya'ni loy bo'lagini qo'l kaftlan orasida dumaloq yoki aylana harakat qilishga o'rgatiladi. Masalan: sharcha, olma, apelsin, olcha, koptok. Bolalar disksimon predmetlarni yasashga o'rganadilar, ya'ni oldin loyni ikki kaft orasida sharsimon shaklga kiritib, so'ng ikki kafti orasida yapaloqlaydilar.

O'rta guruhda bolalarning rivojlanishi qui guruhdan farqlanadi. Bolalar hayotining beshinchi yilida ham fiziologik, ya'ni jismoniy jihatdan, ham psixologik

jihatdan rivojlanadi. Ular predmetlar tuzilishidagi xususiyatlarni ajrata oladigan, tarbiyachining tushuntinib, ko'rsatib berishini tinglay oladigan bo'lishadi, lekin yasagan ishlari quyi guruhdan katta farq qilmaydi. Bolalar hali o'z ishlanda proporsiyaga riosa qilmaydilar, qismlarni mahkam birlashtirmaydilar, predmet shaklini aniq tasvirlamaydilar. Chunki bolalar hali tasvirning hamma usullanni egailamagan bo'lib, predmet haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Tarbiyachi bu guruhda ham bolalarda loy mashg'ulotiga nisbatan qiziqlish uyg'otish, qo'l harakatlarning koordinatsiyasini tarbiyalash, faoiligini o'stirish bo'ylcha ish olib bo'nshni davom ettiradi. Bolalarni predmet shakli to'g'risidagi tasavvurlarini yana ham chuqurlashtinish, uning detallarni to'g'n tasvirlash ustida ish olib boradi. Masalan: odamning boshi dumaloq, uning yuzida ko'zi, burni, og'zi bor va boshqalar. Bu guruhda quyi guruhga nisbatan predmetni, uning tuzilishini aniqroq tasavvur yoki idrok etishga, simmetriyaga riosa qilish, proporsiyani to'g'n tasvirlash kabi sifatlarni o'stirishga ko'proq ahamiyat beriladi. Shu bilan birga bu guruhda tarblyachi loy bilan ishlash usullari va xillarini o'zları mustaqil ravishda qo'llashi ustida ko'proq ish olib boradi. Loy bilan ishlashning texnik usullaridan foydalanishga nisbatan ham talab ortadi: bolalar barmoq bilan, uning uchlari bilan ishlashga, qismlarni mustahkam yopishtirishga, yopishtirgan qismlarini, mayda qismlarini chimgib chiqarishga va hokazo. Bolalar loy bo'lagini aylanaviy va uzunasiga harakat qildirib, barmoq uchi bilan chimgib chiqazadilar, ya'ni bininchchi yarim yillikda bolalar asosan takror ishilaydilar. Il yarim yillikda bolalar butun loy bo'lagidan sabzavot va mevalar, shuningdek, bir necha qismdan iborat figuralar yasashga o'rganadilar. Ular qo'g'irchok, mushuk, quyon, ayiq, qorbobo yasaydilar. Ikkinchchi kichik guruhda ikkita sharchadan yasagan bo'lishsa, o'rta guruhda esa katta-kichik uchta sharchadan, qo'l va boshqa detallarni ham qo'shib yasaydilar. Bolalar loy bo'lagining mayda qismlarini cho'zib chiqarishga, barmoq bilan chuqurcha hosil qilishga, buklashga, biriktirilgan qismini mahkam qilib yopishtinshga, chimgib chiqarishda esa, jo'ja va qushlarni yasashiga o'rganadilar. Bu jarayonda bolalar predmetlarni, ularning qismlarini, shaklni kattaligi jihatidan taqqoslashga o'rganadilar. Masalan: baliqni yasashdan oldin tanasini loydan oval shaklida yasab oladilar, so'ng baliqning blr tomonini salgina cho'zib va dumaloqlab, baliqning boshini, qarama-qarshi tomonini ko'proq cho'zib chiqarib, yapaloqlab, uning dumini yasaydilar, suzgichlarini chimgib chiqaradilar. Shuningdek, bolalar loy bo'lagini bir necha bo'lakka bo'lishga o'rganadilar. Masalan: yuqoridagilardan tashqari, idishlar yasashga o'rganadilar. Ular idishlarni yakka usulda: ya'ni yumaloqsimon va silindrsimon shakkarni barmoq bilan bosib chuqurcha hosil qilish, bandini esa alohida loy bo'lagidan yoki asosiy loy bo'lagidan cho'zib chiqarib yasash mumkin. Bolalar olgan bilim va malakalarini mustahkamlaydilar.

Ular bu uch oylikda butun yil davomida o'rgangan predmetlarini yasaydilar, shu bilan birga tarbiyachi bolalarni tipratikan, sichqon, meva solingan idishcha, qo'zqorin solingan savatcha kabilarni ham loydan yasashga o'rgatib boradi. Butun yil davomida olib boriladigan mashg'ulot asosan predmetli tema asosida oilb boriladi va bu mashg'ulotlar jarayonida bolalar boshlagan ishlarini oxinga yetkazishga, mustaqil ishslashga, o'z ishlarini yangi detallar bilan boyitib borishga o'rganadilar.

Yuqorida aytib o'tilgan loy bilan ishslash dasturini bolalar o'zlashtinshlari uchun tarbiyachi turli xil usullardan foydalanadi. Tarbiyachi guruhga tevarak-atrofdagi predmetlarni kuzatishni taklif etadi. Kuzatish va predmetni ko'rib chiqish vaqtida bolalar e'tiborini dekoratsiya, predmetning asosiy shaklliga, uning qismlanga, tuzilishiga, bir-biriga nisbatan proporsiyasiga jalb etadi. Masalari: kuzatish davomida bironta hayvonning tanasi, boshi, dumining tekisligi, boshining gavdaga tik joylashganligi va boshqalarga qaratadi. Shu bilan blrga tarbiyachi bolalarga predmet va hayvon, parrandalarning harakati natijasida gavda holatlari ham o'zgarib turishini tushuntirib beradi. Bu guruhda tarbiyachi predmetni qo'zg'atishi va ko'rib chiqish vaqtida uni qo'l barmoqlarining harakati bilan ko'rsatib berishi va bolalardan ham shuni qat'iy talab qilishi kerak, bu – sensor tarbiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Bu guruhda yuqoridagi usullardan tashqari tarbiyachi ko'rsatib, tushuntirib benish usullaridan foydalanadi. Bunda kuzatish va ko'rsatish qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, mashg'ulot paytida kuzatishdan tashqan, predmet yoki o'yinchoqlarning tarbiyachi tomonidan yasalgan kichik haykaltaroshlik asarlandan foydalanish mumkin. Shu bilan birga mashg'ulot jarayonida o'yln usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan: qo'g'irchoq uchun shirinllklar va boshqalar.

Mashg'ulot jarayonida bolalarning qiziqishlarini orttirish maqsadida tarbiyachi ularga loy ishiga mos keluvchi she'r, topishmoq, qisqa ertaklar o'qib berishi mumkin. Yasalayotgan ishni yana ham obrazli qilish uchun stekdan foydalaniadi. Masalan: quyonning ko'zi. Bu guruhda bolalar ixtiyoriy loy ishlarini ham bajaradilar. Bunda tarbiyachi savollar bilan bolalar yasaydigan mavzuni aniqlab, ularni yasash usullarini belgilaydi. So'ng bolalarning o'zlan ishga kinishadilar. Bolalarning mustaqil ishlan jarayonida tarbiyachi bolalarga maslahatlar, ko'rsatmalar bilan yordamlashib beradi.

Bola hayotining oltinchi yilida uning tevarak-atrof haqidagi bilimi va tajribasi kengaya boradi. Uning qo'l muskullan mustahkamlanib, taraqqiy etadi. U qo'l barmoqlari bilan nozik harakatlarni bajara oladigan bo'ladi. Uning ruhiy holatida ham sifat o'zgarishi yuz beradi. Xotirasi o'sadi, diqqati ham tobora barqaror bo'ladi.

Bolalar oldin predmetni yasashda uning qismlarini va qismlarning shakli, uning xususiyatlarini aniq tasavvur eta oladilar. Shu bilan blrga katta guruhda bolalar predmetlarni ko'proq harakatda tasvirlashga intiladilar. Bu guruhda bolalarni loy ishlari o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: predmet shaklini, proporsiyasini, uning tuzilishini, xarakterli detallarini hamda harakatini tasvirlarsh va boshqalar. Bu guruhda dekorativ loy ishlarini bo'yash ishlari davom ettiriladi. Bolalar idishlar yasab, so'ng uni bo'yaydilar, dekorativ plstinkalar yasab, ularni bezaydilar. Bu guruhda bolalar sujet mazmun asosida ishlaydilar. Texnlk usullar ham bu guruhda murakkablashadi. O'rta guruhda qismlardan yasashsa, katta guruhga kelib butun blr loy bo'lagidan yasaydilar. Shu bilan blrga stek bilan ishlashga ham keng imkoniyat yoki o'nin ajratiladi. Bu uch oylikda bolalar, dastavval, o'zlariga tanish bo'lgan sodda predmetlarni yasaydilar. Ular loy bilan ishlashning ikki usuli: konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. Bodning, lavlagi, sabzi, olmaning ikki xil navi. Bolalar shu ikki usulda odam figurasini va hayvonlarni yasaydilar. Bu ishlarning mazmuni asosan hali o'yinchoqlaridan olinadi. Masalan: Dlmkovo qo'g'irchog'i. Shu asosda bolalar asta-sekin ishlashga o'tadilar. Tarbiyachi bolalarni predmetning sifatlarini loydan tasvirlashga o'rgatib boradi. Masalan: uzun, qisqa, ingichka, kalta, shuningdek, predmetlarni vertikal, tik holatda o'rnatadilar, qismlarni mahkam biriktirishga, birlashtirilgan qismlarni sillqlashga o'rganadilar. Bolalar asta-sekin o'z ishlariga mazmun berishga o'tadilar, asosan bir butun loy bo'lagidan haykaltaroshlik usulida yasaydilar. Masalan: mushuk, kuchuk, quyon va boshqalar. Ikkinci yarim yllikda butun bir loy bo'lagidan idishlar yasaydilar, so'ng ularni tasmasimon usul bilan bezaydilar.

Bolalarning tevarak-atrof haqldagi tasavvurlari kengayib loy bilan ishslash, malakasini egailagan bo'ladilar, ishlari esa yana ham sifatli bo'ladi. Bolalar harakatdagi odam yoki hayvonlar figurasi mavzusida turli xil loy ishlarini bajaradilar. Masalan: raqsga tushayotgan Petrushka, «Ikki qizg'anchiq ayiq» ertagi asosida va boshqalar. Idishlar yasashda yangi usulni qo'llaydilar. Bu idishning tagi disk ko'ninishida bo'lib, devon esa yassilangan loy bo'lagidan iborat bo'ladi. Bolalar o'zlariga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Masalan: xo'roz, tovuq, o'rdak, jo'ja va boshqalarni yasab, parrandalar shakli ustida ishlaydilar. Bu uch oylikda bolalar ko'proq natura asosida ixtlyoni loy ishlarini bajaradilar. Katta guruhda tarbiyachi loy mashg'uloti davomida ko'plab usullarni qo'llaydi. Bu guruhda ham tarbiyachi, dastavval, predmetni yoki naturani kuzatib, uning shaklini, qismlarini, proporsiyasini ko'nb chiqadi. Bolalar predmetni barmoq harakatlari bilan ko'rib chiqishlan mumkin. Agar bolalar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasaydilar, agar bilishmasa, unda tarbiyachi qisman ko'rsatib

berishi mumkin. Shuningdek, tarbiyachi bu guruhda ham bolalar bilan qo'proq ishlaydi, badiiy adabiyotdan foydalanadi, rasm, haykaltaroshlik asarlari ustida kuzatishlar olib boradi. Savol-javoblar uyuştiradi, ko'rsatmalar, maslahatlar beradi, bola juda qiyalsa, alohida loy bo'lagida yasash usulini ko'rsatib beradi, topishmoqlardan keng foydalanadi. Bolalar ishini tahlil qilish ham muhim usullardan hisoblanadi. Tahlil suhbat sifatida uyuştiriladi. Tarbiyachi bolalar bilan har bir ishning qandayligini, to'g'ri yasalaganmi, yasash usuli to'g'ri tanlanganmi, shakl to'g'ri berilganmi, qismlari, ularning proporsiyasi to'g'ri berilganmi, shular haqida so'zlashadi. Tahlilni har xil ko'ninishda uyuştiresh mumkin: bolalar o'z joyida o'tirib, alohida bolani doskaga chiqanib ishniring sifatini tahlil qilish. O'yln usulidan ham foydalanish mumkin.

Predmetni idrok etish asosida bolalar ongida obraz shakllanadi. U buyumlarni yasashda o'zining real voqyelikdan olgan bilimlariga suyanadi va rasm chizishdagi yoki applikatsiyalar yasashdagi kabi predmetning bir tomoni emas, balki barcha tomonini aks ettiradi, chunki unga endi tasviny faoliyatning boshqa turida zarur bo'ladigan shartli ifodadash usulidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, loy va plastilindan buyumlar yasash, rasm chizish applikatsiya ishslashga qaraganda ikki qo'l bilan silab, tabiiy sezishni ko'proq rivojlantiradi va takomillashtiradi. Qo'llarning faol harakati esa shaklni aniqroq chiqarishga olib keladi. Shu tufayli o'quvchilar tasvirlash usullanni tezroq o'zlashtirib oladilar.

Loy va plastilindan o'yinchoq yasashga kinshishdan oldin predmet ko'zdan kechiriladi, chunki real olamdag'i predmetlarni bilishda ko'rish yetakchi hisoblanadi. Lekin sezish ham muhim ahamiyatga ega. Kishida buyumlarning mexanik sifatlari haqidagi mufassal ko'ruv tasavvuri ko'rish va qo'l bilan paypaslash ko'p marta takrorlanishi natijasida vujudga keladi.

Loy va plastilindan o'yinchoq yasashga kinshishdan oldin predmetni faol ko'zdan kechinish – o'quvchilarning hissiy tajribasini tashkil etishning pedagogik usulidir. Buni to'rt bosqichda amalga oshirish haqida tushuncha beriladi.

1-bosqich – predmetni idrok etishni tashkil qilish, bunda barmoqlar va ko'zlarning yuqorigi nuqtadan pastga asosiy xarakterli chiziqlar bo'ylab izchil va uzlusiz haraktlanishidan iborat.

2-bosqich – predmetni qo'l va nigoh bilan kuzatishda uning asosiy qismlari tahlil qilinadi, ularning xossalari aniqlanadi.

3-bosqich – predmetning yanada maydaroy qismlarini kuzatish, ular shaklining kattaligi va asosiy qismlariga nisbatan fazodagi holatini aniqlab olish.

4-bosqich – predmetni yaxlit holda takroran idrok etish. Bunda qo'l va ko'zning yuqorida pastga umumiylar yakunlovchi harakatlari sezish orqali olingan ma'lumotlarni yaxlit obrazga birlashtirish imkonini beradi. Bunda qo'l barmoqlarning hammasini ishga solish kerak. Materialning strukturasini aniqlash

uchun predmetning sirtiga qattiq bosib ko'rish usuli qo'llaniladi. O'quvchilarni sensor etalonlar – predmetning shakli, kattaligi bilan tanishtirishga katta o'rinn beriladi.

2.2. Loyning xususiyatlari

Loy – narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi. Loy o'zining xossasiga ko'ra yumshoq, yopishqoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki, u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash va uning narsalar yasashga yaroqliliginini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati juda yomon.

Bunday loyni tayyorlash uchun tuproq tanlanadi. Tuproq jigarrang, qo'ng'lr bo'lib, ular ikki xil xususiyatga ega – quruq va yog'li bo'ladi. Yog'li tuproq quruq tuproqqa nisbatan namligi yaxshi, yopishqoq, yumshoq, tekislanish va pardozlanish xususiyati yaxshi bo'ladi. Tuproqni tekshirish uchun, odatda, bir siqim tuproqni olib, suvga solinadi, yopishqoqligi, ilashimligi tekshiriladi.

Loy tayyorlashning blr necha usullari mavjud.

1-usul: loy tayyorlash mumkin bo'lgan tuproqni tanlab, uni yaxshilab eziladi va elakdan o'tkaziladi. So'ngra uni yog'och yoki plastmassa idishga solib, suv quylladi, suv to'la shlmdirilgandan so'ng 1–2 kun saqlanadi, so'ngra yana suv quyib, qoriladi. Loy yopishqoq, yagona massali, qo'nga yopishmaydigan, yaxshi silliqlanish va elastiklik holatiga yetguncha ishlov beriladi. So'ngra, loyni polietilen xaltaga solib, havo o'tkazmaydigan holda o'raladi. Undan blr necha mashg'ulotda foydalanish mumkin. Chunki, bu holda loyni bir oy yoki ikki-uch oy, hatto yillab saqlash mumkin.

Loy qancha ko'p saqlansa, u shunchalik yopishqoq, elastiklik va silliqlanish xususiyati ortib boradi.

2-usul: 1 kg tuproq elanadi. Duxovkada 20 daqiqa qizitib, sovigandan so'ng, 25 gramm paxtani maydalab solinadi. 200 gramm yog' quyilib, kerakligicha suv solinadi. Loyga ishlov berilib, qoriladi. Loyni ho'l matoga o'rab, polietilen xaltada 2 sutka tindiriladi. Bunday loyni ko'p marta ishlatsa bo'ladi.

Massaning qo'liashga yaroqliliginini juda oddiy usul bilan aniqlash mumkin: tuproqdan loy tayyorlab, undan halqacha hosil qilinadi. Agar halqachaning tashqi tomonida yonqchalar hosil bo'lmasa, massa haykaltaroshlik mashg'ulotlarida

foydalanim uchun yaroqli hisoblanadi. Yaroqli tuproq manbalari mavjud bo'Imagan hududlarda agar tuproq har xil begona jinslardan xoli bo'lsa, plastmassa chelak yoki shunga o'xshash idishga imkon qadar maydalab solinadi va ustidan suv quyib, bir necha kunga ivitib qo'yiladi. Suvni shunday mlqdorda quyish kerakki, tuproqning yuqori qismi quruqligicha qolishi kerak. Agar suv ko'proq quyilsa, loy suyuq bo'lib, uni qattiqroq massa holiga keltirish uchun vaqt sarflanadi. Shuningdek, undan shakl hosil qilish qiyinlashadi. Begona jismalar borligi ehtimoli mavjud bo'lsa, tuproqni maydalab, elakdan o'tkazib olish lozim. Chunki tuproq tarkibida kesuvchi (shisha siniqlari, tunuka bo'lakchalan, temir parchalari, blr qirrasi o'tkir toshchalar va boshqa tig'li jinslar) begona jinslar bo'lishi mumkin. Tuproqni begona jinslardan tozalab bo'lgach, uni ham birinchi variantdagidek ivitib qo'yiladi. Bu vaziyatda bolalar tomonidan oldingi yillarda ishlangan hamda keraksiz bo'lgan haykalchalarni ham maydalab qo'shib yuborish mumkin. 2–3 kun ivigan qonishmani qo'lga rezina qo'lqop kiygan holda yoki maxsus tayyorlangan tayoq blian blr xil massa hosil bo'lgunicha yaxshilab aralashtiniladi. Loyga ishlov berishda uning tayyor holga kelganligini aniqlash uchun uning blr bo'lagi qo'lning kaftida aylantiniladi. Agar loy kaftga yopishmasa, u ishlatish uchun tayyor bo'lgan hisoblanadi.

Loyning plastiklik xususiyatini oshirish uchun uning tarkibiga moy, vazelin kabi qo'shimchalar qo'shish mumkin. Hosil bo'lgan massani germetik yopiladigan idishda yoki seilofan pylonka bilan o'ralgan tarzda saqlash mumkin. Bunday zaxira yil davomida o'tkaziladigan haykaltaroshlik mashg'ulotlari uchun yetarli bo'ladi. Faqat ishlatish oldidan uning sifati nazorat qilinadi. Lozim bo'lgan taqdirda unga biroz suv sepib, ishlov beriladi. Tayyorlangan loyni sirlanmagan temlr yoki boshqa metall idishlarda saqlash tavsiya etilmaydi. Chunki loy tarkibidagi namlik hisobiga idish zanglaydi hamda uning metall idish bilan kontaktda bo'lgan qismi buziladi.



Mashg'ulotlarda tayyorlab qo'yilgan loydan ma'lum qismi olinib, unga yana ishlov beriladi. Qo'lga yopishmaydigan holga kelgunga qadar ishlanadi. Loy qo'lga yopishmaydigan, lekin o'z massasiga yaxshi yopishadigan va plastiklik holati yaxshi bo'lsa, bunday loydan har qanday shakl yasash mumkin bo'ladi.

O'rni kelganda loy tanlash va undan foydalanishga tayyorlash masalalaridagi tavsiyalarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Odatda, loy tayyorlash uchun tuproqni ommaviy tarzda yillar davomida ekin ekiladigan va kimyoviy o'g'itlar bilan oziqlantirilladigan, chovachilik va parrandachillk fermalari yaqinidagi joylardan olish tavsiya etilmaydi.



Mamlakatimizning ayrim viloyatlarida, ayniqsa, tog'li va adirli hududlarda tarkibiga ko'ra ekologik toza va ishlash uchun har tomonlama qulay, turli shakllar yasash uchun o'zining elastikligi bilan ajralib turadigan manbalar mavjud. Shuningdek, loy tayyorlash uchun daryo va soyga yaqin, suv yuvib turadigan joylardan massa olish mumkin. Biroq bunday joylardagi tuproq tarkibida qum mlqdon ko'p bo'lganligi uchun, shakl hosil qilishda massaga plastik ishlov benishda qulaylik xususiyatlari pastlli bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar kuzatiladi. Bunday massadan yasalgan shakl quriganidan keyin uqalanib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Haykaltaroshlik (loy ishi) mashg'ulotlarining samarali kechishida mashg'ulot o'tkaziladigan joyni to'g'ri tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar: oddiy konstruksiyadagi yog'och va steklardan foydalilanadi.

2.3. Loy yoki plastilindan modellashtirish texnikasi va uslublari

Plastilindan bitta buyumni yasashda, usullar klassifikatsiyasi shartli bo'lib, bitta usuldan ikkinchi usul yoki bir usuldan boshqa usulga o'tish va to'ldirish nazarda tutiladi.

1. Yasashning konstruktiv uslubi.

Bu usulda yasalgan buyum alohida qismlardan yaratiladi. Bola tasvirning qanday qismlardan tarkib topganini tasavvur qiladi va buyumni yasashni boshlaydi.

Konstruktiv usul bilan yasashda bola 2–3 yoshdan boshlab, o‘zi uchun «yangilik ixtiro qiladi». Bu yoshdagi bolalar ishida quyidagi variantlar bo‘lishi mumkin:

Bir xil shakllarni birlashtirish (munchoq shodasi)




**O'Ichami turli XII hajmdagi shakllarni birlashtirish
(qo'ziqorin, kapalak, qushcha)**



**O'xshash, ammo o'Ichami turli xil hajmdagi shakllarni birlashtirish
(piramldalar, qorbobo, sarak-sarak qo'g'Irchoq)**









2. Yasashning haykaltaroshlik uslubi.

Bu usul «plastik» haykaltaroshlik deb nomlanadi, bu usulda yaxlit bo'lakdan foydalilaniladi.

Bu usulda hayvonlar, baliqlar, guldon, tuvaklar va hakozolar, qushning tumshug'i yoki jirafaning bo'yni, quyonning quloglari yasaladi. Yaxlit plastilindan cho'zish yo'li bilan, yapaloqlash, mayda qismlarni chimdib, barmoq bilan bosib, chuqurcha hosil qilish yo'li bilan bajaniladi.



3. Yasashning kombinatsiyalashgan uslubi.

Bu uslub imkoniyatlari universal hisoblanadi va konstruksiyalash va haykaltaroshlik uslublanini qamrab oladi. Bolalar plastilin bilan ishlashning ikki – konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. Bodning, lavlagi, sabzi, olma, nok va hokazolar bo'lishi mumkin. Ular shu ikki usulda odam shaklini va hayvonlarni yasaydilar. Bu ishlarning mavzusi asosan o'yinchoqlardan olinadi.



2.4. Loy yoki plastilindan obrazlarni yaratish texnologiyalari

Loy yoki plastilindan kuchukcha shaklini haykaltaroshlik usulida modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Kulrang, jigarrang, qora rangdagi plastilin, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

Kuchukchani modellashtirish

Kuchukcha haykalchasini yasash uchun uning gavda qismi loy yoki plastilindan tasvirga qarab oval holatiga keltirib olinadi. Keyln uning bir tomoni biroz bo'yin hosil qilish uchun bukiladi va cho'ziladi. Shu tariqa quloqlari, oyoqlari va dumি cho'ziladi hamda shakl beriladi.



Loy yoki plastilindan kuchukcha shaklini konstruktiv usulda modellashtirish texnologlyasi



1. Kuchukchaning tana qismini modellashtirish.

Kuchukcha haykalchasini yasash uchun uning gavda qismi plastilindan tasvirga qarab oval holatiga keltirib olinadi. Keyin uning bir tomoni biroz bo'yin hosil qilish uchun bukiladi va cho'ziladi.



2. Kuchukchaning bosh qismimi modellashtirish.

Bosh va tana qismi tasvirdagi shaklga keltirib olinadi. Kuchukcha burni o'rnatib chiqiladi.



3. Qismlarni birlashtirish.

Quloqlanini tayyorlab olib, ularni bosh qismiga, oyoqlarini tayyorlab olib, ularni namunali tasvirga qarab tana qismliga o'rnatiladi. Tayyor bo'lgan kuchukcha haykalchasi taglikka o'rnatib qo'yildi.



Loy yoki plastilindan mushukcha shakllni modellashtirish texnologlyasi



Kerakli jihozlar:

Zarg'aldoq yoki sariq rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, idishda suv, yog'och qalamstek, o'yinchoqning asl namunasi.

O'yinchoq mushukcha haykalchasini ishlash quyldagi bosqichlarda olib boriladi.

1. Mushukchaning tana qismini modellashtirish.

Zarg'aldoq yoki sariq rangdagi plastilin yoki loyning bir bo'lagini namunadagi tasvirlarga qarab silindrifat qilib tayyorlab olinadi. So'ngra uning ikki tomoni stek yordamida ayriga o'xshatib kesiladi. Keyin tayyorlab olingan bo'lakning ikki tomonli ayri qismi yarim doirasimon qilib bukiladi.





2. Mushukchaning bosh qismini modellashtirish.

Bu bosqichda mushukchaning bosh qismi ishlanadi. Boshi, burni, og'zi, ko'zi, qulog'i, mo'ylovi rasmida ko'rsatilgandek tayyorlab olinadi.



3. Qismlarni birlashtirish.

Mushukchanining bosh qismi gavda qismiga biriktiriladi. So'ngra dum'i o'rnatiladi.

4. Jihozlash.

Mushukchaning yo'l-yo'l chiziqchalarini tayyorlab olinib, yopishtirib chiqiladi. Bolalarga mushukchani boshqacha variantini yuqorida ko'rsatib o'tilgan bosqichlar asosida ishlatish ham mumkin

Loy yoki plastilindan to'ti shaklini modellashtirish texnologiyasi



Kerakli jihozlar:


Zarg'aldoq yoki sanq, qizil, ko'k, yashil, oq rangdagi piastilin, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, to'tining haykalchasi, to'tining tasviri aks ettirilgan reproduksiya, o'yinchoqning asl namunasi. To'tining haykalchasini plastilindan yasash texnologiyasi tushuntiriladi.

1. To'tining bosh va tana qismini modellashtirish.

Zarg'aldoq yoki sariq, qizil, yashil, ko'k rangdagi plastilin yoki loyning bir bo'lagini namunadagi tasvirlarga qarab silindrsifat qilib tayyorlab olinadi.



Sariq yoki zarg'aldoq rangdagi plastilin bo'lagidan bosh va tana qismi uchun katta va kichik dumaloq shakllar yasalib, birlashtiriladi.



2. Qismlarni birlashtirish.

To'tining bosh qismi gavda qismliga biriktinlgandan so'ng qanoti va turli rangdagi dumi yopishtiirladi.



3. Jihozlash.

To'tinining tumshug'i tayyorlab olinib, yopishtirib chiqiladi. Ko'zlari uchli stek-qalamcha yordamida o'rnatiladi.

Loy yoki plastilindan ot shaklini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Jigarrang yoki sariq, oq rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, idishda suv, yog'och qalamstek, o'yinchoqriing asl namunasi.

O'yinchoq otning haykalchasini ishlash quyidagi bosqichlarda olib borlladi.



Otning tana va bosh qismini modellashtirish.

Jigarrang yoki sariq rangdagi plastilin yoki loyning blr bo'lagini namunadagi tasvirga qarab silindrsifat qilib tayyorlab olinadi. Bosh qismi uchun katta bo'limgan bo'lakni ham silindrsifat qilib tayyorlab olinadi va biriktiriladi.



Otning to'rtta oyog'i bir xil tarzda uzun silindrchalardan tayyorlanadi.



Otning tanasiga birlashtiriladi.



Otning ikkita qulog'i, dumi tayyorlanib tanasiga birlashtiriladi.



Otning bosh qismiga uchli qalam-stek bilan ko'zlan va burun kataklari tayyorlanadi.



Loy yoki piastilindan g'oz shaklini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Zarg'aldoq yoki kulrang, qora rangdagi plastilin, namunali ish va uning ko'chirma nusxalan, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, g'oz haykalchasi, g'oz tasviri aks ettirilgan reproduksiya, o'yinchoqning asl namunasi. G'ozning haykalchasini loy yoki plastilindan yasash texnologiyasi tushuntiniladi.

1. G'ozning tana qismini modellashtirish.

Loy yoki plastilin bo'lakchasidan g'ozning asosiy tana qismi rasmdagi blrinchi bosqich tasviri kabi kerakli shaklga keltirib olinadi.



2. G'ozning bosh qismini modellashtirishda tana va bo'yni asosiy qismdan cho'zish usulida hosil qilinadi.



3. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish.

G'ozning bosh qismi, patlan, dumi va boshqa mayda qismlari ishlanadi. G'oz haykalchasi faner yoki karton ustiga mahkamlanadi.



Mazkur bosqichda haykalchaning sirti silliqlab chiqiladi.



Loy yoki plastilindan qarqara shakllini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Zarg'aldoq yoki kulrang, qora rangdagi plastilin, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, qarqara haykalchasi, qarqara tasviri aks ettirilgan reproduksiya, o'yinchoqning asl namunasi.

Qarqara haykalchasini loy yoki plastilindan yasash texnologiyasi tushuntiniladi.

1. Qarqaraning tana qismini modellashtirish.

Loy yoki plastilin bo'lakchasidan qarqaraning asosiy tana qismi rasmdagi haykaltaroshlik usulidan foydalanib, shaklga keltirib olinadi.



Tana qismidan bo'yln va bosh qismi cho'zish orqali shakllantiriladi.



Bir bo'lak loy yoki plastilindan ikkita bir xil dumaloq shakl yasab, qanotlari yassilanadi. Qanotlari va boshqa qismlarni birlashtirishda qalam-stek bilan rasmda ko'rsatilganidek shtrix chiziladi va suv bilan namlanib, qismlar birlashtiriladi.



Birlashtirilgan qismlar suv bilan namlanib, silliqlanadi.



Qarqaraning tagligi yassilangan dumaloq shaklga keltiriladi va qalam-stek bilan rasmda ko'rsatilganidek shtrix chiziladi va suv bilan namlanib, birlashtiriladi.



Qarqaraning dumi uchun katta yoki kichkina loy bo'lagini dumaloq shakldan yassilanib, yuqorida ko'rsatilganidek birlashtiriladi.




Qarqaraga toji va baboqlari tayyorlanib, suv bilan namlangan holda birlashtiriladi.



Tayyor bo'lgan qarqara yana bir bor suv bilan namlanib, silliqlanadi va 1–2 kunga quritish uchun qo'yiladi.

Qurigan o'yinchoqqa rang bilan bezak beriladi.



Shu tarzda qarqaraning katta-kichikligi va rang-baranglagini ifoda etish mumkin.



Plastilindan xo'roz shaklini modellashtirish texnoiogiyasi

Kerakli jihozlar:

Yashil, oq yoki kulrang rangdagi plastilin, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, xo'roznинг haykalchasi, xo'roz tasviri aks ettirilgan reproduksiya, o'yinchoqning asl namunasasi.

Xo'roz haykalchasini loy va plastilindan yasash texnologiyasi tushuntiriladi.

1. Xo'rozning tana qismini modellashtirish.

Loy yoki plastilin bo'lakchasiidan xo'roz tanasining asosiy qismi rasmda tasvirlanganidek oval shaklida yasaladi. Namunadagi ikkinchi tasvirga qarab xo'rozning tana qismini xuddi tarvuz tiligiga o'xshash shaklga keltirib olinadi.



2. Xo'rozning bosh qismini modellashtirish.

Xo'rozning bosh qismi, patlari va dum qismi kerakli shaklga keltiriladi.



3. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish

Namunadagi xo'roz tasviriga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga aniqlik kiritiladi. Xo'roz tasvinnинг mayda qlsmi tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qlsmiga biriktirib chlqiladi.



Loy yoki plastilindan aylqcha shaklini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Jigarrang, sariq, qora rangdagi plastilin yoki polimer loy (chinni xamir), namunali ish va uning ko'chirma nusxaian, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'ylachoqning asl namunasi.

1. Ayiqning tana qismini modellashtirish.

Aylqning tanasi tuxumsimon shaklda yasaladi.



2. Bosh qismini modellashtirish.

Ayiq shaklining bosh qismi: dumaloq shakl yasaladi, katta bo'limgan loy yoki plastilindan tumshuq yasalib, ko'z va burunlan yopishtiriladi. Jigarrang ikkita katta bo'limgan dumaloq shakllar yasalib, quloqlar yassilanadi va bosh qismining tepasiga yopishtiriladi. Ayiqning bosh qismi tanasiga birlashtiriladi. Birlashtirilgan joyi sillqlanadi.



3. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish.

Namunadagi tasviriga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga aniqlik kiritiladi. Ayiq tasvirining mayda qismlari tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qismliga biriktirib chiqiladi.

Pastki oyoqlarni dumaloq shakldan yasalib, yanm aylana holatga keltiriladi. Qalam-stek bilan panjalan shakllantiriladi. Pastki oyoqlari ayiqning pastiga birlashtiriladi.



Old oyoqlari uchun ikkita silindrchadan «Bodringchalar» shakllantiriladi. Qalam-stek bilan panjalari shakllantiriladi. Ayiq tanasining yelka tomoniga birlashtiriladi. Pastki oyoqlari esa, tana qismining pastki tomoniga birlashtiriladi.

Loy yoki piastilindan buqacha shakllini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Kulrang, oq, qora rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Buqachaning tana qismini modellashtirish.

Buqachaning tanasi tuxumslmon shakldan yasaladi.



2. Bosh qismini modellashtirish.


Buqacha shaklining bosh qismlari dumaloq shakl yasaladi, katta bo'limgan loydan tumshuq yasalib, ko'z va burunlari yopishtiriladi. Ikkita katta bo'limgan dumaloq shakllar yasalib, qulqlar yassilanadi va bosh qismining yon tomoniga yopishtiriladi. Ikkita katta bo'limgan silindrchadan shoxlari shakllantiriladi va buqachaning bosh qismliga birlashtiriladi. Bosh qismi tanasiga birlashtiriladi. Birlashtirilgan joyi silliqlanadi.

3. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish.

Namunadagi tasviriga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga aniqlik kiritiladi. Buqacha tasvining mayda qismlari tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qismiga biriktirib chiqiladi.

Pastki oyoqlari dumaloq shaklda yasalib, yarim aylana holatga keltiriladi. Qalam-stek bilan panjalari shakllantiriladi. Pastki oyoqlari bugachaning pastiga birlashtiriladi.

Oyoqlarini yasash uchun to'rtta silindrchalar yasalib, uzun oyoqlar shaklantiriladi va tanasiga biriktirilib, silliqlanadi.



Loy yoki plastilindan buqa shaklini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Jigarrang va oq, qora rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Buqaning tana va bosh qismini modellashtirish.

Biriktirish kerak bo'lgan barcha qismlarga qalam-stek bilan chizgilar chiziladi va suv bilan namlanib, biriktiriladi.



2. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish

Namuriadagi tasviriga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga aniqlik kiritiladi. Buqa tasvinining mayda qismlari tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qismiga biriktirib chiqiladi.

Pastki oyoqlar dumaloq shaklda yasalib, yarim aylana holatga keltiriladi. Qalam-stek bilan panjalari shakllantirrлади. Pastki oyoqlari buqanining pastiga birlashtiriladi.

Tayyor bo'lgan shakllar 1–2 kun quritiladi. Rang bllan bo'yaladi. Buqa haykalchasi xuddi buqacha shaklini yasash kabi bajarlladi.



Loy yoki plastilindan slgir shaklini modellashtirish texnologlyasi

Kerakli jihozlar:

Jigarrang, sariq va qora rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Sigirning tana qismini modellashtirish.

Sigir tanasining tuxumsimon shakli yasaladi. U blroz cho'zinchoq bo'ladi.



2. Bosh qismini modeliashtirish. Bosh qismi uchun tuxumsimon shakl yasaladi va tumshug'i cho'ziladi.

Biriktinsh kerak bo'lgan barcha qismlar qalam-stek bilan chiziqlar chiziladi va suv bilan namlanib, binktiriladi.



3. Qismlarni tayyorlash va birlashtirish.

Namunadagi tasviriga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga aniqlik kiritiladi. Sigir tasvirining mayda qismlari tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qismiga biriktirib chiqiladi.

Pastki oyoqlar dumaloq shaklda yasalib, yarim aylana holatga keltiriladi. Qalam-stek bilan panjalari shakllantirrildi. Pastki oyoqlari sigirning pastiga birlashtiriladi.



Sigir shaklining bosh qisml: dumaloq shakl yasaladi, katta bo'limgan plastilin yoki loydan tumshuq, ko'zlar yasallib, yopishtiriladi. Ikkita katta bo'limgan dumaloq shakllar yasallib, qulqlar yassilanadi va bosh qismining yon tomonlga yopishtiriladi. Ikkita katta bo'limgan silindrchadan shoxlan shakllanriladi va sigirning bosh qismiga birlashtiriladi. Bosh qismi tanasiga birlashtiriladi. Birlashtirilgan joyi silihlanadi. Sigirning buqadan farqi uning tanasi cho'zinchoqroq va yelini bilan ajrallib turadi.

Barcha qismlar birlashtirilgandan so'ng, suv bilan silliqlanib, quritish uchun qo'ylladi.



Loy yoki plastilindan quyon shakllini modellashtirish texnologiyasi

Kerakli jihozlar:

Oq yoki kulrang va qora rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalarini, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

1. Quyonning tana qismini modeliashtirish.

Quyonning tana shakli uchun: silindr dan katta tuxumsimon, bosh qismi uchun kichkina dumaloq shakl yasaladi.



2. Bosh qismini modellashtirish.

Bosh qismiga ikkita uzun quloqlar shakllantirilib, birlashtiriladi.

Shakllangan bosh qismi tanasiga rasmida ko'rstilganidek biriktiriladi.



3. Qismlarni tayyoriash va biriashadirish.

Namunadagi tasviriga qarab bosh, tana va dum qismlariga qayta ishlov berib, detallarga aniqlik kiritiladi. Quyon tasvirining mayda qismlari tayyorlab olinadi. So'ngra ular haykalchaning bosh va tana qismiga biriktiib chiqiladi.

Pastki oyoqlar dumaloq shaklda yasalib, yanm aylana holatga keltiriladi. Qalam-stek bilari panjalari shakilantiriladi. Pastki oyoqlari quyonning pastiga birlashtiriladi.

Biriktirish kerak bo'lgan barcha qismlar qalam-stek bilan chiziqlar chiziladi va suv bilan namlanib, biriktiriladi.

To'rtta oyoq parallel tarzda biriktiriladi va dumi yasalib, yopishtiriladi. Tayyor bo'lgan quyoricha suv bilari namlanib, silliqlanadi.

1–2 kundan keyin qurigan ish bo'yaladi.



XULOSA

Maktabgacha ta'lrim muassasalarda loy va plastilindan yoki innovatsion yangilik bo'lgan polimer (chinni) loydan narsalar yasash – predmetlar, shakllar, hayvonlar, qushlar, odamlarni plastik tasvirlash usulidir. Qo'llanadigan material istalgan ifodalilikka erishish yo'lida personajlarning tashqi qiyofasini, ularning harakati, holatini o'zgartirish imkonini beradi.

Xuddi rasm solishda bo'lganidek, plastik materiallardan narsalar yasashda ham obrazlar paydo bo'ladi, bolalar olingen shakl va figuralarni shular yordamida nomlaydilar. Masalan, ayrim ko'ninishlariga ko'ra guvalaning hayvonga o'xshashliklarini topadilar. Tarblyachi obrazli ifodalashga intilishni qo'llab-quvvatlaydi hamda plastik materialdan narsalar yasash malakalarini egallahda yordam beradi.

Shu bilan birga bola loy va plastilinning turli xossalari anglab yetadi, hajmli shakl, predmetning tuzilishi hamda nisbatlari bilan tanishadi, qo'llarni aniq harakatlantirish, ko'z bilan to'g'ri mo'ljal olishni o'rganadi, unda konstruktiv qobiliyatlar shakllanib boradi. Agar faoliyatning bu turi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, loy va plastilindan turli buyumlar yasash bolalarning sevimli mashg'ulotiga aylanib qolishi mumkin.

Loy va plastilindan o'ylachoqlar yasash mashg'ulotlanda tarbiyachilar oldiga: bolalar ijodkorligini rivojlantirish, ularda tasviri y hamda texnik ko'nlikmalar hosil kilish, mazkur faoliyat tunga qiziqish uyg'otish va bu jarayonda kulolchilik kasbiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish vazifalari qo'yiladi. Maktabgacha ta'lrim muassasasidagi ta'lrim tizimida bolalarni maktabga tayyorlash maqsadini ko'zlagan holda tashkil etiladi. Loy va plastilindan o'ylachoqlar hamda buyumlar yasash estetik tarbiya tizimida muayyan o'rinn tutadi hamda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

TESTLAR

1. Polimer loy qaysi davlatda ixtiro qilingan?

- A) Italiya;
- B) Argentina;
- C) Fransiya;
- D) O'zbekiston.

2. Fantaziya – bu nima?

- A) ixtiro;
- B) faoliyat;
- C) did va qiziqish;
- D) o'y va xayol.

3. Polimer loy bilan ishlashni modellashtirish jarayonida asosiy ish quroll nima?

- A) qaychi;
- B) mo'yqalam;
- C) qo'l;
- D) qalam.

4. Modellashtirish qanday jarayon?

- A) Fazoviy-plastik tasvirlarni yaratish va plastik materiallardan narsalarni yasash imkoniyati.
- B) Badiiy ijodiyotning eng anlq shakli.
- C) Modellashtirish texnikasi turli va rang-barang bo'lib, kichik yoshdagি bolalar ham bajara olish faoliyati.
- D) Barcha javoblar to'g'n.

5. Modellashtirish texnikasi – loy ishi mashg'ulotlari bola rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- A) Shakl, hajm, plastik, rangni idrok etish hissiyoti va sensor sezuvchanligini rivojlanitiradi.
- B) Mayda qo'l motorikasini, fazoviy tafakkurni, tasavvurni rivojlanitiradi va ikkala qo'l ishini sinxronlashtiradi.
- C) ishni rejalashtirish, amalga oshirish, natijani bashoratlash va unga enishish, kerak bo'lsa, o'zgartirish kiritish ishlarida ko'nikma, malakalari shakllanadi.
- D) Barchasi javoblar to'g'ri.



6. Chinni xamir tayyorlashda ranglarni tanlash va bo'yashda nimalardan foydalanamiz?

- A) akvarel bo'yog'i va mo'yqalam;
- B) guash;
- C) loy;
- D) plastiliri.

7. Tayyor polimer loy qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

- A) Qo'lga yopishmaydigan, lekin o'z massasiga yaxshi yopishadigan va plastiklik holati yaxshi.
- B) Yuqori plastiklik holatga ega bo'lishi.
- C) Yopishqoq va egiluvchan, qattiq holatdagi ko'rinishga ega bo'lishi.
- D) Yumshoq va yaltiroq, tez yorlluvchanligi.

8. Polimer loy (chinni xamlr) bllan ishlashda kerak bo'ladigan usullar nechta?

- A) 3;
- B) 4;
- C) 5;
- D) 6.

9. Polimer loy bllan ishlashda kerak bo'ladigan usullar qanday?

- A) Yumaloqlash, aylana hosil qilish, shakl yasash va o'zgartirish.
- B) Yumaloqlash, aylantirish, shakl yasash va o'zgartirish, yassilash, cho'zish, surish (yamash).
- C) Shakl yasash va o'zgartirish.
- D) Yumaloqlash va yassilash.

10. Polimer loydan silindr shaklini qanday yasash mumkin?

- A) Plastik material bo'lagini kaftlar orasiga olib, uzuriasiga harakatlar bilan silindr hosil qilinadi.
- B) Bir bo'lak plastik materialni bir kaft bilan qattiq sirt ustida to'g'ri harakatlar bilan silindr hosil qilinadi.
- C) Bir bo'lak plastik materialni katta bosh va ko'rsatkich barmoqlar uchida to'g'ri harakatlar bilan silindr hosil qilinadi; bu usulda juda kichkina silindrchalar va ingichka cho'pchalar hosil bo'ladi.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

11. Pollmer loydan shar shaklini qanday yasash va o'zgartirish mumkin?

- A) Plastik materialning blr bo'lagini ikkita barmoq uchida dumaloqlatish harakati orqali.

- B) Bir bo'lak plastik materialni bir kaft bilan qattiq sirt ustida to'g'ri harakatlar bilan.
- C) Bir bo'lak plastik materialni blr kaft bilan dumaloqlash, kaftlar orasida yassilash, bir tomonini cho'zish orqall.
- D) Bir bo'lak plastik materialni bosh va ko'rsatkich barmoqlar uchida to'g'ri harakatlar bilan.

12. Sharcha va silindrdan yasaladigan shakllar –

- A) samolyot, qorbobo, sharcha, minoracha, ayiq, qo'g'irchoq, quyoncha;
- B) gul, qayiq, bulutlar;
- C) mevalar va sabzavotlar;
- D) geometrik shakllar.

13. Polimer loy bilan ishlashda konstruktiv uslub qanday xususlyatga ega?

- A) Narsalarning mayda qismlanni yaratish.
- B) Narsalar alohida qismlardan yaratiladi va predmetning yirik qismlangiga, uning mayda qismlariga, shakliga, rangiga jalb etadi.
- C) Alovida va yakka predmetlarni yasash.
- D) Predmetning yirik qismlariga e'tibor qaratish.

14. Konstruktiv uslubda modeliashtirish texnikasi necha ko'rinishda namoyon bo'ladi?

- A) 1;
- B) 2;
- C) 3;
- D) 4.

15. Haykaltaroshlik uslubi – bu

- A) Plastik yoki buturi bo'lakdan modellashtirish.
- B) Turli shakllarri birlashtinsh.
- C) Ikkita bir xil shaklni birlashtirish.
- D) O'xhash shakllarni birlashtirish.

16. Polimer loy ishida kombinatsiyalashgan uslub qanday?

- A) O'xhash shakllarni birlashtirish texnikasi.
- B) Konstruksiyalash va haykaltaroshlik uslublarining qorishmasi.
- C) Qismlarni mahkam biniktlish, birlashtirilgan qismlarni silliqlash.
- D) Yumaloqlash va yassilash, cho'zish.



17. Polimer loydan moychechakguli shaklini modellashtirishda qanday usullardan foydalanlladi?

- A) dumaloqlash, cho'zish;
- B) yassilash va bezash;
- C) o'xhash shakllarni birlashtirish;
- D) cho'zish, yassilash.

18. Polimer loy (chinni xamir)dan chumolini modellashtirishda tana qismi necha qismdan iborat bo'ladi?

- A) 2;
- B) 3;
- C) 4;
- D) 5.

19. Polimer loy (chinni xamlr)dan tovuq va jo'jalarni modellashtirishda eng avval qanday shakl yasaladi?

- A) yumaloq sharcha yasaladi;
- B) silindr yasaladi;
- C) cho'zib piramida yasaladi;
- D) uchburchak shakl yasaladi.

20. Pollmer loydan g'oz va o'rdakni modellashtirish texnologiyasida qanday usullarni ishlatalamiz?

- A) dumaloqlash;
- B) dumaloqlash, yassilash, birlashtirish;
- C) cho'zish;
- D) surish (yamash).

21. Polimer loydan tulkinining bosh qismini modellashtirishda qanday yo'llardan foydalanamiz?

- A) dumaloqlash, cho'zish, birlashtirish;
- B) yassilash, dumaloqlash;
- C) cho'zish, birlashtirish;
- D) dumaloqlash.

22. Jirafa haykalchasini tayyorlash uchun qanday shakllarni yasab olamiz?

- A) Sharcha va silindr shakl yasaladi.
- B) Tanasiga silindrdan katta tuxumsimon, bosh qismi uchun kichkina dumaloq shakl yasaladi.

- C) Tana cho'zish va yassilash orqali yasaladi.
- D) O'xshash qismlanni birlashtirib yasaladi.

23. Tasviriy faoliyatning loy ishl mashg'ulotlarida nimadan foydalanamiz?

- (A) loy;
- B) guash;
- C) plastilin;
- D) mo'yqalam.

24. Plastilining o'ziga xos xususiyati nImada?

- A) rangli va qurimasligi;
- B) yopishqoqligi;
- C) yumshoqligi;
- D) sun'iy plastik massaga ega.

25. Plastilin qanday tayyorlanadi?

- A) Maxsus loydan, kukundan, yog' va turli pigmentlar qo'shish bilan tayyorlanadi.
- B) Maxsus loydan tayyorlanadi.
- C) Turli rangli qorishmalardan tayyorlanadi.
- D) Kukundan tayyorlanadi.

26. Plastilining qanday turlari mavjud?

- A) yengil va quruq;
- B) yumshoq va mayin;
- C) oddiy va murakkab;
- D) qattiq va yumshoq.

27. Plastilin necha xil usulda tayyorlanadi?

- A) 3 xil;
- B) 4 xil;
- C) 5 xil;
- D) 6 xil.

28. Plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarining eng asosiy maqsadi nIma?

- A) Bolalarni loy bilan ishlashga o'rgatadi.
- B) Bolalarni haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatadi.
- C) Mayda qo'l motorikasini rivojlantiradi.
- D) Ranglarni ajrata bilishga o'rgatadi.



29. Haykaltoroshlik nima?

- A) loy bilan ishlash;
- B) tasviriy san'at turi;
- C) tasvirlash;
- D) qo'lda yaratish.

30. Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan usullar qaysilar?

- A) yumaloqlash, yassilash, cho'zish, surish (yamash);
- B) tasvirlash va birlashtirish;
- C) shakl yasash va birlashtirish;
- D) qo'lda yaratish.

31. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash jarayonida bolalarda qanday mehnat malakalari shakllantiriladi?

- A) Ish o'rnnini ozoda, tartibli saqlash, aylanadigari doirall dastgohdan foydalanish.
- B) Predmetning hamma tomoniga ishlov berish.
- C) Boshlagan ishini oxiriga yetkazishga o'rgatish.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

32. Loy va plastilindan sujetli o'yinchoqlar yasashda necha XII kompozitsiyadan foydalilanildi?

- A) 4 xil;
- B) 5 xil;
- C) 2–3 xil;
- D) 6 xil.

33. Maktabgacha ta'lif muassasalarida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlari qaysi yosh guruhdan boshlanadi?

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) maktabga tayyorlov guruh.

34. Loning o'ziga xos xususiyati nimada?

- A) yopishqoq va mustahkam;
- B) yumshoq, yopishqoq, ilashuvchari, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kinish xususiyatiga ega;
- C) qattiq va dag'al, yorlluvchan;
- D) yumshoq va qattiq.

35. Loy tayyorlashning necha xil usuli bor?

- A) 1;
- B) 2;
- C) 3;
- D) 4.

36. Loyning plastikilk xususiyatini oshirish uchun uning tarkibiga nima qo'shish mumkin?

- A) suv;
- B) moy va vazelin;
- C) krem;
- D) tuproq.

37. Loy bilan ishlaganda asosan qanday asboblardan foydalaniadi?

- A) oddiy konstruksiyadagi yog'och qalam-steklar;
- B) mo'yqalam va qaychi;
- C) pichoqcha va qalam;
- D) inson qo'li.

38. Yasashning konstruktiv uslubidan bola necha yoshdan boshlab o'zi uchun ixtiro qila boshlaydi?

- A) 2–3 yosh;
- B) 3–4 yosh;
- C) 4–5 yosh;
- D) 5–6 yosh.

39. Yasashning haykaltaroshlik uslubi qanday ataladi?

- A) chinni xamir;
- B) plastik haykaltaroshlik;
- C) loydan yasash;
- D) yaxlitlik.

40. Yasashning kombinatsiyalashgan uslubida bolalar plastilin bilan ishlashning qanday usuilarini qo'llaydilar?

- A) haykaltaroshlik;
- B) konstruktiv;
- C) konstruktorlik va haykaltaroshlik;
- D) yaxlitlik.



41. Loy va plastilindan o'yinchoq ot haykalchasini yasashda modellashtirish bosqlchlari qanday?

- A) Otning tana va bosh qismi yasallb, birlashtirilib, bezaladi.
- B) Otning tana va bosh qismini yasash va birlashtirish.
- C) Otning tana va bosh qismi yasaladi.
- D) Otning tana va bosh qismi yasab, bezaladi.

42. Loy va plastilindan g'ozning bosh qismini modellashtirish qanday yasaladi?

- A) cho'zish va yassilash orqali;
- B) tana va bo'yni asosiy qismdan cho'zish usulida hosil qilinadi;
- C) yumaloqlash va yassilash bllan;
- D) tana va bo'yin qismi yassilanadi.

43. Loy yoki plastilin bo'lakchasiidan xo'roz tanasining asosly qismi qanday shaklda yasaladi?

- A) aylana;
- B) silindr;
- C) oval;
- D) romb.

44. Loy yoki plastilindan ayiq tanasining asosiy qismi qanday shaklda yasaladi?

- A) aylana;
- B) silindr;
- C) oval;
- D) tuxumsimon.

45. Loy yoki plastiliindan sigir shaklini modeliashtirishda kerak bo'ladigan jihozlar?

A) jigarrang, sariq, qora rangdagi plastilin yoki loy, namunali ish va uning ko'chirma nusxalari, karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi;

B) karton, faner bo'lakchasi, latta, yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi;

- C) plastilin yoki loy, namunali ish;
- D) yog'och qalam-stek, o'yinchoqning asl namunasi.

46. Loy va plastillndan o'yinchoqlar, ro'zg'or buyumlari yasash mashg'ulotlarida asosiy maqsad nima?

- A) Ushbu faollyatga qiziqishni shakllantirish.

B) Maktabgacha yoshdagি bolalar ijodkorligи rivojlantinsh, ularda tasviriy hamda texnik ko'nikmalar hosil qilib, mazkur faoliyat turiga qiziqish uyg'otish.

C) Obrazlilikni rivojlantirish.

D) Mehnat qilish malakalarini shakllantirish.

47. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida eng faol ishlataladigan a'zolar qaysilar?

A) qo'l (bajaruvchi) va ko'z (kuzatuvchi, jarayonni nazorat qiluvchi) hisoblanadi;

B) qo'l (bajaruvchi) eng asosiy o'rnda turadi;

C) ko'z kuzatuvchi vazifani bajaradi;

D) loy bilan ishlashda barcha tana a'zolari faol ishlaydi.

48. To'g'ri tayyorlangan chlnni xamir o'zining xossasiga ko'ra qanday xususiyatga ega bo'ladi?

A) rangli va jozibador;

B) yumshoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega;

C) qattiq va dag'al;

D) yumshoq va qattiq.

49. MTMda bolalar plastik materiallar bilan ishlashda eksperiment jarayonini qanday olib boradilar?

A) uzish, cho'zish, yassilash, chimchilash, shaklini o'zgartirish orqali;

B) yumaloqlash va cho'zish orqali;

C) o'xshash shakllarni birlashtirish orqali;

D) ezish va bo'ilsh, yassilash orqali.

50. Plastik material bilan ishlashda bolalar uchun eng muhim yutuq nimada?

A) narsaning shaklini o'zgartirish;

B) obraz yaratish;

C) eksperiment o'tkazish;

D) birlashtirish.

51. Ilk yoshdagи bolalar tomonidan o'zlashtiriladigan eng qulay shakl – bu

A) silindr;

B) shar;

C) piramida;

D) oval.



52. Loy va plastilindan sharchani ikkala tomondan ozgina cho'zib yasab qanday shakl chiqarish mumkin?

- A) oval, (qovun, tarvuz);
- B) elleps;
- C) bodning shakli;
- D) non shakli.

53. Maktabgacha yoshdagি bolalarda modellashtirish necha xil ko'rinishda namoyon bo'ladi?

- A) 1;
- B) 2;
- C) 3;
- D) 4.

54. MTMda bolalarni loy ishlariга o'rgatishda qanday vazifalar turadi?

- A) Predmet shaklini, proporsiyasini, uning tuzilishini, xarakterli detallarini va harakatini tasvirlash,
- B) Boshlagan ishini oxiriga yetkazish.
- C) Loyning xususiyatlarini bilib olish.
- D) Obrazlarni yarata olish.

55. Maktabgacha yoshdagи bolalar modellashtirish texnikasini necha yoshda murakkablashtira boradilar?

- A) 3–4 yosh;
- B) 4–5 yosh;
- C) 5–6 yosh;
- D) 6–7 yosh.

56. MTMda qalam-stek bilan mustaqil ishlash imkoniyati qaysi yosh guruhida shakllanadi?

- A) kichik guruh;
- B) o'rtalama guruh;
- C) katta guruh;
- D) mакtabga tayyorlov guruh.

57. Maktabgacha ta'lim muassasalarida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarida bolalarga qanday ilk bilimlar beriladi?

- A) loy va plastilin bilan tanishtiriladi;
- B) mayda qo'l motorikasi shakllantiriladi;
- C) loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash o'rgatiladi;
- D) sharcha, silindr, oval kabi tushunchalar o'rgatiladi.

58. Bolalarga beriladigan plastilinning uzunligi qancha bo'lishi kerak?

- A) 2–5 sm;
- B) 3–4 sm;
- C) 5–6 sm;
- D) 7–10 sm.

59. Loy qanday ko'rinishda bo'ladi?

- A) qattiq va yumshoq;
- B) shirali va shirasiz;
- C) dag'al va tekis;
- D) yaltiroq va rangsiz.


60. Yasashning qaysi uslubi universal hisoblanadi?

- A) haykaltaroshlik;
- B) konstruktiv;
- C) kombinatsiyalashgan;
- D) modellashtirish texnikasi.

JAVOB KALITARI

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	S	C	D	D	B	A	D	B	D
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
C	A	B	C	A	B	A	B	A	B
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	B	C	D	A	C	A	B	B	A
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
D	C	A	B	B	B	A	A	B	C
41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
A	B	C	D	A	B	A	B	A	B
51	52	53	54	55	56	57	58	59	60
B	A	C	A	C	C	A	C	B	C

NAMUNALAR





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekistori Respublikasining «Ta'limi to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash miliy dasturi». – T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori.
3. O'zbekistori Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. – T., 2018.
4. Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi «Ilk qadam» o'quv dasturi. – T., 2018.
5. A. Sulaymonov. Maktabgacha ta'lim muassasalarda haykaltaroshlik mashg'ulotlari. Bolalarda plastik materiallardan shakl hosil qilish malakalarini shakllantirish. Tarbiyachilar uchun ilmiy-metodik qo'llanma. – T., 2015.
6. G. Amirova. Tablatni estetik idrok etish. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida tabiiy materiallar bilan ishlash texnologiyalari bo'yicha maktabgacha ta'llim muassasalari tarblyachilari uchun ilmiy-metodik qo'llanma. – T., 2015.
7. O. Jamollidinova. «Katta yoshdagi bog'cha bolalarни xalq hunarmandchiligiga o'rnatish bo'yicha ish dasturi». – T., 1996.
8. Сакулина Н.П. Рисунок, аппликация, работа с глиной в детском саду. – М.: «Просвещение», 1993.
9. Комарова. Т.С. Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию. – М.: «Просвещение», 1991.
10. Комарова Т.С. Дети в мире творчества: Книга для педагогов дошкольных учреждений. – М., 1995.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. POLIMER LOY (CHINNI XAMIR) BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALARI	
1.1. Polimer loyning xususiyatlari	5
1.2. Polimer loy (chinni xamir)ni modellashtirish texnikasi va uslublari.....	19
1.3. Polimer loy (chinni xamir)dan obrazlarni yaratish texnologiyalari	23
II BOB. LOY VA PLASTILIN BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALARI	
2.1. Plastilarning xususiyatlari	54
2.2. Loyning xususiyatlari	58
2.3. Loy va plastilindan modellashtirish texnikasi va uslublar	60
2.4 Loy va plastiliindan obrazlarni yaratish texnologiyalari.....	68
XULOSA.....	97
TESTLAR	98
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	107

O'quv nashri

Maxmudova Oybarchin Axatovna, Maxmudova Sevara Asatilla qizi

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PLASTIK MATERIALLAR BILAN
ISHLASH TEKNOLOGIYALARI**

O'quv qo'llanma

Muharrir A. Ziyodov

Rasmlar muharniri N. Aliyeva

Kompyuterda tayyorlovchi T. Abkerimov

Original-maket «Niso Poligraf» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent viloyati, O'rta Chlrchiq tumani, «Oq-ota» QFY,
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Lisenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2019-yil 26-iyulda ruxsat etildi. Bichimi 84x108^{1/16}.
Ofset qog'osi. «Times New Roman» garniturası. Shartli bosma tabog'i 7,5.
Nashr tabog'i 4,46. Adadi 2000 nusxa. 540-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O'rta Chlrchiq tumani, «Oq-ota» QFY,
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

M 32

Maxmudova O.A.

Maktabgacha ta'lim tizimida plastik materiallar bilan ishlash texnologiyalari [Matn]/
O.A. Mahmudova, S.A. Maxmudova. – Toshkent: «Niso-Poligraf», 2019.– 120-b.

ISBN 978-9943-5450-8-3

O'UK 373.2

KBK 74.102



Maxmudova Oybarchin Axatovna 1969-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Nizomiy nomidagi TDPU huzurudagi XTXQTMOXMda «Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikaları» kafedrasida dotsent v. b. lavozimida ishlab kelmoqda.

O. Maxmudova ko'p yillik tajribaga ega ilg'or pedagog sifatida zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalangan holda yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish borasida samarali mehnat qilib kelmoqda.

Izlanuvchan pedagogning 7, 8, 9-sinflar uchun «Yordamchi maktablarda ona tili» darsliklari, hammuailiflikda «Nutqni tekshirish va rivojlantirish bo'yicha logopedik albom», «Планирование воспитательных часов». «Перфокарты» методическое пособие с приложением дидактического материала по русскому языку в начальных классах» о'quv qo'llanmalari ta'lif jarayoniga tatbiq etilgan.



Maxmudova Sevara Asatilla qizi 1994-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 30-mehribonlik uyi to'garak rahbari lavozimida ishlaydi. Nizomiy nomidagi TDPUning Pedagogika va psixologiya fakulteti «Maktabgacha ta'lif» yo'nalishining Iqtidorli talabasi.

Bolalarning ta'lif-tarbiya jarayoni mazmunini oshirishda bir qator ishlarni amalga oshirib, o'z ish faoliyati davomida qo'l mehnati ko'rgazmalar bilan qatnashib kelmoqda. O'zining intiluvchanligi, jonkuyarligi va tashkilotchilik qobiliyatining yuqoriligi bilan bolalar jamoasini yildan yilga yuqori ko'rsatkichlarga olib chiqishga hissa qo'shib kelmoqda.